

Sardor NAZAROV



NEMIS TILI GRAMMATIKASI

JADVALLARDA

Deutsche Grammatik
in Tabellen



43
N/8

Sardor NAZAROV

NEMIS TILI GRAMMATIKASI JADVALLARDA

**Deutsche Grammatik
in Tabellen**

Qayta nashr

Toshkent
«Akademnashr»
2016

UO'K: 811.112.2(075)

KBK: 81.2Nem-2

N-18

N-18

Nazarov, Sardor

Nemis tili grammatikasi jadvallarda / S.Nazarov – Toshkent:
Akademnashr, 2016. – 176 b.

ISBN 978-9943-995-43-7

UO'K: 811.112.2(075)

KBK: 81.2Nem-2

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1875-sonli qarorini amalga oshirish hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-dekabrda 01-07/1-840-sonli majlis bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida yaratildi.

Qo'llanmada til o'rganuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida nemis tili grammatikasi ixcham, tushunarli va ravon tilda jadval hamda sxemalarga solingan holda batafsil bayon qilingan. Qo'llanma o'quvchilar, talabalar va nemis tiliga qiziqqan keng omma uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Xurram RAHIMOV, filologiya fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

O'tkir USKENBAYEV, filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Elmirza ERKAYEV, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-995-43-7

© Sardor Nazarov «Nemis tili
grammatikasi jadvallarda»

© «Akademnashr», 2016

SO'ZBOSHI

Respublikamizda chet tillarni o'rgatish va o'rganishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgani bois 2012-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1875-sonli qarori qabul qilindi. Unda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'rgatish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashga katta e'tibor qaratildi.

Ushbu qarorga asosan respublikaning barcha umumta'lim maktablarida 1-sinfdan u yoki bu chet tili o'qitila boshlandi. Bunda to'rt nutq faoliyat turlarining ikki xili – tinglab tushunish va gapirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Albatta, bu yangi tajriba bo'lgani uchun, turli metodik, didaktik va lisoniy muammolar ham kun tartibiga qo'yilmoqda. Jumladan, yangi davlat ta'lim standarti (DTS), o'quv va ishchi dasturlar hamda me'yoriy hujjatlar asosida yangi o'quv adabiyotlarini yaratish kabi muhim masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Qo'lingizdagi kitob nemis tilini o'rgatuvchi va o'rganuvchilar uchun metodik qo'llanma sifatida yaratilgan. Unda nemis tili grammatikasining asosiy mavzulari maxsus jadvallar asosida yoritilgan.

Til hodisasini teorema va ta'rif shaklida tushuntirish til o'rganishning dastlabki bosqichida o'rganuvchiga og'irlik qiladi. Biroq bunda ko'rgazmalilik va obrazli tushuntirish, jadval va diagrammalardan foydalanish metodik jihatdan, ayniqsa, til o'rganishning dastlabki bosqichidagi material bo'lmish grammatika mavzularini o'rgatishda samarali va maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qo'lingizdagi qo'llanma aynan shu qulay vosita – jadvallar yordamida yaratilgan va o'rganuvchilarda yaxlit grammatik tasavvur hosil qilishda yaxshi ko'makdosh bo'ladi.



**NEMIS TILI ALIFBOSI
(DAS DEUTSCHE ALPHABET)**

Aa	Bb	Cc	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii
[a:]	[bɛ:]	[tʰɛ:]	[dɛ:]	[e:]	[ɛf]	[gɛ:]	[ha:]	[i:]
Jj	Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr
[jɔt]	[ka:]	[ɛl]	[ɛm]	[ɛn]	[o:]	[pɛ:]	[ku:]	[ɛr]
Ss	Tt	Uu	Vv	Ww	Xx	Yy	Zz	
[ɛs]	[tɛ:]	[u:]	[faɔ]	[vɛ:]	[iks]	[ypsilon]	[tsɛt]	

BA'ZI TALAFFUZ QOIDALARI

[i:]	cho'ziq, yopiq, tiloldi, yuqori ko'tarilish, lablanmagan unli tovush. O'zbek tilida cho'ziq [i:] unlisi sifati jihatdan nemis tilidagi [i:] unlisiga o'xshaydi. Masalan, kir, o'tir, og'iz.
[ɪ]	qisqa, yopiq, cho'ziq, miqdori jihatdan o'ta qisqa unli. O'zbek tilida qisqa [ɪ] unlisiga o'xshaydi. Masalan, tiniq, tinchlik.
[e]	qisqa, yopiq, tiloldi, o'rta ko'tarilish, lablanmagan unli tovush. O'zbek tilida qisqa [ye] unlisiga o'xshaydi. Masalan, kelmoq, yeng.
[ɛ:]	cho'ziq, ochiq, tiloldi, o'rta ko'tarilish, lablanmagan unli tovush. O'zbek tilida cho'ziq [e:] unlisiga o'xshaydi. Masalan, ekin, e'lon.
[ɛ]	qisqa, ochiq, o'rta ko'tarilish, lablanmagan unli tovushdir. O'zbek tilida qisqaroq [e] unlisiga o'xshaydi. Masalan, eshik, echki.
[ə]	ochiq, o'rta qator, o'rta ko'tarilish, o'rta cho'ziqlikdagi lablanmagan unli tovush. O'zbek tilidagi [i] unlisi talaffuziga ko'proq o'xshaydi. Masalan, borib, kelib.
[z]	tiloldi, shovqinli sirg'aluvchi, jarangli milk undoshi. O'zbek tilida [z] undoshiga o'xshaydi. Masalan, kanizak.
[s]	tiloldi, shovqinli, sirg'aluvchi, kuchli jarangsiz undosh. O'zbek tilida [s] undoshiga o'xshaydi. Masalan, ašal, ašar.
[j]	o'zbek tilidagi [y] undoshiga o'xshaydi. Ba'zi so'zlarda [y]dan kuchliroq talaffuz qilinadi. Masalan, may, saroy.
[ʌ]	yopiq undosh tovush [j]
[ʊ]	lablangan [e:]
[ɨ]	lablangan cho'ziq [ɛ:]
[y]	cho'ziq, yopiq tiloldi, yuqori ko'tarilish, lablangan unli tovush. O'zbek tilida nemis tilidagi [u] va [u:] unllariga mos keladigan fonema yo'q. Lekin [u] va [u:] unllari o'zbek tilidagi [u] unlisining tiloldi varianti [u] unlisiga sifat jihatidan biroz o'xshaydi. Masalan, kuz, tun, jun.
[ə]	bo'g'iq [a]

AYRIM HARFLAR VA HARF BIRIKMALARINING O'QILISHI

i ie ih	[i]	Berlin, wir [bɛr'li:n], [vi:r] Brief, wie [bri:f], [vi:] Ihnen, ihr ['i:nən], [i:r]
i	[i:]	Fisch, in [fiʃ], [in]
e ee eh	[e:]	Eva ['e:fa] Tee [te:] Zehn, gehen [tse:n], [ge:n]
ä äh	[ɛ:]	Bär [bɛ:r] zählen ['tsɛ:lən]
e ä	[ɛ]	elf, es [ɛlf], [ɛs] Männer ['mɛnɐ]
e	[ɔ]	Katze, danke ['katsɔ], ['danʔɔ]
a aa ah	[a:]	Glas [glɑ:s] Saal [zɑ:l] Sahne [zɑ:nə]
o oo oh	[o:]	Mond [mo:nt] Boot [bo:t] wohnen ['vo:nən]
u uh	[u:]	Bluse ['blu:zə] Uhr [u:ɐ]
th dt	[t]	Bibliothek [biblio'te:k] Stadt [ʃtat]
pp b	[p]	Lippe ['lipə] Klub [klup]
ss ß	[s]	Tasse ['tasə] weiß [væəs]

x chs ks	[ks]	Max [maks] sechs [zɛks] links [liŋks]
qu	[kv]	Quadrat [kva'dra:t]
f, ff ph v	[f]	Film [film] Philosophie [filozof'i:] vier [fi:r]
ch	[x]	acht [axt]
sch	[ʃ]	Schick [ʃik]
st	[ʃt]	Stuhl [ʃtu:l]
sp	[p]	Sport [ʃport]
ei ai	[æ]	Preis [præ:s] Mai [mae]
ei äu	[ɔø]	Deutsch [dɔøtʃ] Träume [trøume]
au	[ao]	Haus [haos] auch [aoux]
ng	[ŋ]	Ring [riŋ]
nk	[ŋk]	Schrank [ʃraŋk]
ö öh oe	[ø:]	schön [ʃø:n] Söhne [ˈzø:nə] Goethe [ˈgø:tə]
ö	[œ]	zwölf [tʃvœlf]
ü y	[ʏ]	fünf [fʏnf] Ägypten [ɛ'gʏptən]
ü üh y	[y:]	Tür [ty:r] Frühling [ˈfry:liŋ] Analyse [ana'ly:zə]

ARTIKL (DER ARTIKEL)

Nemis tilida otlar oldidan, odatda, maxsus so'z – artikl qo'llanadi.

Artikllar ikkiga bo'linadi: aniq artikl va noaniq artikl. Aniq artiklga **der, die, das** kiradi. Ko'plikda **die** har uchala rod uchun qo'llanadi. Noaniq artikllar – **ein, eine, ein**. Noaniq artikllar ko'plik shakliga ega emas.

Gapda artikllar muhim rol o'ynaydi. Ular turlanadi hamda otlarning rodini, sonini va kelishigini ko'rsatadi. Shuningdek, so'zlovchi uchun otning ma'lumligini, aniqligini yoki noma'lumligini, noaniqligini ko'rsatadi. Noaniq artikl quyidagi hollarda qo'llanadi: agar narsa-predmet haqida birinchi bor fikr yuritilsa va o'sha narsa-predmet so'zlovchiga noma'lum bo'lsa. Aniq artikl esa narsa-predmet so'zlovchiga ma'lum, aniqligini, u haqda bundan oldin fikr yuritilganligini ifodalaydi.

Rod	Artikl	Lug'atlardagi qisqartma shakli
Maskulinum (mujskoy)	der	m (Maskulinum)
Femininum (jenskiy)	die	f (Femininum)
Neutrum (sredniy)	das	n (Neutrum)

Birlik		Ko'plik	
Aniq artikl	Noaniq artikl	Aniq artikl	Artiklsiz
der Mann	ein Mann	die Männer	Männer
die Frau	eine Frau	die Frauen	Frauen
das Kind	ein Kind	die Kinder	Kinder

ANIQ VA NOANIQ ARTIKLLARNING TURLANISHI (DEKLINATION DER UNBESTIMMTEN UND BESTIMMTEN ARTIKEL)

Kelishik (Kasus)	Birlík (Singular)						Hamma rodlar uchun ko'plik (Plural)
	mujskoy rod		jenskiy rod		sredniy rod		
	aniq	noaniq	aniq	noaniq	aniq	noaniq	
Nominativ	der	ein	die	eine	das	ein	die
Genitiv	des	eines	der	einer	des	eines	der
Dativ	dem	einem	der	einer	dem	einem	den
Akkusativ	den	einen	die	eine	das	ein	die

ANIQ ARTIKLNING QO'LLANILISHI (GEBRAUCH DES BESTIMMTEN ARTIKELS)

Narsa-predmet so'zlovchiga ma'lum, aniq bo'lib, u haqda bundan oldin fikr yuritilgan bo'lsa	Dort liegt ein Buch. Das Buch ist interessant.
Tabiatda yagona holda uchraydigan predmet nomlari oldidan	<i>die Sonne, die Erde, die Welt, der Äquator der Mond, der Himmel</i>
Aniq bir vaziyatda	<i>Der Lehrer sagt: «Komm an die Tafel!»</i>
Gapda qaratqichli aniqlovchi kelganda	das Buch <i>des Lehrers</i>
Otdan oldin tartib son kelsa	<i>der erste September der zweite Tag</i>
Otdan oldin sifat orttirma darajada kelsa	<i>die schönste Frau der beste Schüler</i>
Geografik nomlar oldidan aniqlovchi kelsa hamda mujskoy va jenskiy rodga tegishli geografik nom bo'lsa	<i>das schöne Wien die Schweiz</i>
Atoqli ot aniqlovchi bilan qo'llanganda	<i>der junge Beethoven</i>
Fasllar, oy, hafta kunlari oldidan	<i>der Januar (yanvar), der Frühling (bahor), der Freitag (juma)</i>

Tog', daryo, ko'l, dengiz, okean, yulduzlar, qit'a va mintaqalar nomlari oldidan	<i>Der Hisor, der Amu-Darjo, der Orolsee, der Mond, der Süden, der Nordpol</i>
Aniqllovchi aniqlanmishdan keyin kelganda	<i>Die Rosen im Garten Das Bild an der Wand</i>
In, an, auf, vor, über, für, gegen, mit, nach, aus, zu kabi predloglardan keyin	<i>Wir studieren an der Universität Nach dem Unterricht kommen wir nach Hause</i>

NOANIQ ARTIKLNING QO'LLANILISHI (GEBRAUCH DES UNBESTIMMTEN ARTIKELS)

Narsa-predmet haqida birinchi bor fikr yuritilsa va o'sha narsa-predmet so'zlovchiga noma'lum bo'lsa	Dort steht ein Junge .
haben, brauchen fe'llari va es gibt iborasidan keyin, odatda, noaniq artikl doim Akkusativ kelishigida keladi	Hast du eine Schwester ? Ich brauche ein Heft . Vor unserem Haus gibt es einen Garten .
Narsa-predmet biri ikkinchisi bilan qiyoslanganda wie so'zidan keyin keladi	Sie spricht deutsch wie eine Deutsche .
Gapda ot kesim bo'lib kelgan bosh kelishikdagi ot oldidan sifat turgan bo'lsa	Er ist ein erfahrener Lehrer .

Shaxs, predmet va hokazolarning yo'qligini bildirish uchun **kein** inkor olmoshi ishlatiladi.

Birlik			Ko'plik
mujskoy rod	jenskiy rod	sredniy rod	barcha rodlar uchun
kein Mann	keine Frau	kein Kind	keine Männer/ Frauen/ Kinder
keines Mannes	keiner Frau	keines Kindes	keiner Männer/ Frauen/ Kinder

keinem Mann	keiner Frau	keinem Kind	keinen Männern/ Frauen/ Kindern
keinen Mann	keine Frau	kein Kind	keine Männer/ Frauen/ Kinder

**ARTIKLNING QO'LLANMASLIK HOLLARI
(WEGFALL DES ARTIKELS: NULLARTIKEL)**

Birlikda noaniq artikl bilan qo'llangan otlardan ko'plik yasalganda	Hier liegen ein Buch und ein Heft. – Hier liegen <i>Bücher</i> und <i>Hefte</i> .
Kasb-hunar, millat va dinni ifodalovchi otlar oldidan sein va werden fe'llari kelsa, shuningdek, als so'zidan keyin	Ich bin <i>Arzt</i> . Er ist <i>Türke</i> . Mein Sohn wird <i>Ingenieur</i> . Er ist <i>Katholik</i> . Er arbeitet als <i>Lehrer</i> .
Murojaatda	<i>Kinder! Freunde!</i>
Atoqli otlar oldidan	<i>Goethe, Schiller, Hesse</i>
Sredniy rodga kelgan geografik (shahar, o'lka, davlatlar) nomlar oldidan	<i>Deutschland, Berlin</i>
Donalab sanab bo'lmaydigan va mavhum otlar oldidan	Ich trinke <i>Milch</i> gern. Mit <i>Interesse</i> lesen die Schüler einen Brief aus Köln.
So'z birikmalarida va maqollarda	<i>Tag und Nacht, zu Fuß</i> <i>Eile mit Weile. Übung macht den Meister.</i>
E'lon, peshtaxta yozuvlari, kino, kitoblar nomlarida	<i>Buchhandlung, Sportwaren, Krieg und Frieden</i>
Diniy bayramlarning nomlarida	<i>Weihnachten, Ostern, Pfingsten</i>
Ko'pincha biror narsa sanab chiqilganda	<i>Neue Wohnhäuser, Schulen, Krankenhäuser und Kindergärten</i> wurden gebaut.

OT

(DAS NOMEN, DAS SUBSTANTIV, DAS HAUPTWORT)

Ot shaxs yoki buyum nomini ifodalaydi. Nemis tilida otlar atoqli (Helga, Hans, Thomas, Müller; Berlin, Deutschland; Rhein) va túrdosh (das Haus, die Stadt, das Kind, die Frau, der Mann) otlarga bo'linadi. Otlar mujskoy, jenskiy, sredniy rodlarga ajraladi. Artikl otning qaysi rodga mansubligini ko'rsatadi.

OTLARNING GRAMMATIK RODINI ULARNING
MA'NOSIGA QARAB ANIQLASH(DIE BESTIMMUNG DES GESCHLECHTS DER NOMEN
NACH IHRER BEDEUTUNG)

MUJSKOY RODDAGI OTLAR

Erkak jinsiga mansub otlar	der Mann, der Löwe
Dunyo tomonlarining nomi	der Norden, der Süden, der Nordost
Fasllar nomi	der Frühling, der Winter, der Sommer, der Herbst
Oylar nomi	der Januar, der Juni, der Oktober
Hafta kunlari nomi	der Montag, der Mittwoch
Kecha-kunduz qismlarining nomi	der Morgen, der Tag, der Abend istisno: die Nacht
Tabiat hodisalarining nomi	der Wind, der Regen, der Schnee

JENSKIY RODDAGI OTLAR

Ayol jinsiga mansub otlar	die Frau, die Mutter, die Katze istisno: das Mädchen, das Fräulein
Daraxt, gul, rezavor, meva, sabzavotlar nomi	die Tanne, die Äster, die Kirsche, die Birne, die Gurke istisno: der Ahorn, das Veilchen, der Apfel, der Pfirsich

Daryolar nomi	die Oder, die Spree, die Elbe istisno: der Neckar, der Rhein, der Main
Kemalar nomi	die «Europa», die «Deutschland», die «Nautilus»
Ko'p hollarda samolyotlar nomi	die «TU-104»

SREDNIY RODGA MANSUB OTLAR

Bolalarning (jumladan, hayvon bolalarining ham) nomi	das Kind, das Ferkel
Metallarning nomi	das Eisen, das Silber istisno: der Stahl, die Bronze
Tillarning nomi	das Deutsch, das Englisch
Qit'a, davlat, shaharlar nomi	(das) Europa, (das) Berlin, (das) Schweden istisno: die Schweiz, die Türkei, die Mongolei, die Niederlande, der Iran, der Irak
Kino, kafe, mehmonxonalar nomi	das «Metropol», das «National»

OTLARNING GRAMMATIK RODINI ULARNING SO'Z YASOVCHI SUFFIKSLARIGA QARAB ANIQLASH

(DIE BESTIMMUNG DES GESCHLECHTS DER NOMEN NACH IHREN WORTBILDENDEN SUFFIXEN)

MUJSKOY RODGA KIRADIGAN (DER ARTIKLIGA EGA) SO'ZLAR

Quyidagi suffikslar bilan kelgan otlar: -er -ler, -ner -el -ich, -ig -ling	der Arbeiter der Gärtner, der Wissenschaftler der Rüssel der Teppich, der Honig der Lehrling
---	--

Quyidagi suffikslar bilan kelgan internatsional so'zlar: -ismus, -us -ant, -ent	der Human ismus , der Modus der Student, der Aspirant
-ist, -soph -or, -ieur, -ier, -är -al -at	der Poliz ist , der Philosoph der Direktor, der Ingenieur, der Pion ier , der General der Diplomat
Fe'ldan yasalgan otlar	der Tanz, der Plan, der Bund, der Schritt

JENSKIY RODGA KIRADIGAN (DIE ARTIKLIGA EGA) SO'ZLAR

Quyidagi suffikslar bilan kelgan otlar: -in -ung -heit -keit -schaft -ei -e	die Freundin, die Lehrerin die Übung, die Heizung die Freiheit, die Gewohnheit die Möglichkeit, die Billigkeit die Wissenschaft, die Gesellschaft die Bäckerei, die Malerei die Erde, die Hilfe
Quyidagi suffikslar bilan kelgan internatsional so'zlar: -ie -tät -tion -ik -ive -ur	die Energie, die Chemie die Fakultät, die Universität die Organisation, die Revolution die Politik, die Technik die Initiative die Natur, die Kultur
Otlashgan sonlar	die Zwei, die Eins
Sifatdan yasalgan -e qo'shimchali va mavhum tushunchalarni ifodalaydigan otlar	die Größe, die Höhe, die Tiefe

SREDNIY RODGA KIRADIGAN (DAS ARTIKLIGA EGA) SO'ZLAR

-lein, -chen suffiksi bilan kelgan hamma otlar	das Büchlein , das Häuschen
ge- oldqo'shimchali otlar	das Getränk , das Gefühl
Quyidagi suffikslar bilan kelgan otlar: -nis	das Gefängnis , das Ereignis istisno: die Erlaubnis , die Kenntnis , die Finsternis
-sal (-sel)	das Schicksal , das Rätsel
-tum	das Eigentum , das Bürgertum
-ium	das Laboratorium , das Studium
-um	das Museum
Fe'llarning otlashgan Infinitiv va ko'pchilik sifatdash shakllari	das Lesen , das Schreiben , das Gesagte
-(s)tel suffiksi bilan kelgan otlar	das Drittel , das Zwanzigstel
Quyidagi suffikslar bilan kelgan jonsiz otlar: -at	das Plakat
-ent	das Dokument , das Parlament

Yuqorida sanab o'tilgan qoidalar otlarning rodini aniqlash uchun yordam beradi, lekin ular istisnolardan ham iborat. Shuning uchun lug'atda artikl bilan ko'rsatilgan so'zlarni yodlash tavsiya etiladi.

QO'SHMA OTLAR (ZUSAMMENGESetzte NOMEN)

n		f		f
das Eisen	+	die Bahn	=	die Eisenbahn
(temir)		(yo'l)		(temir yo'l)

aniqlovchi so'z asosiy so'z

n		m		m
das Dorf	+	der Rand	=	der Dorfrand
(qishloq)		(chekka)		(qishloq chekkasi)

aniqlovchi so'z asosiy so'z

**OTLARDA KO'PLIK SHAKLINING YASALISHI
(DIE PLURALBILDUNG DER NOMEN)**

**NEMIS TILIDA OTLARNING
KO'PLIK SHAKLI YASALISH TURLARI**

Suffikslar	Misollar
-	der Lehrer – die Lehrer
- " (umlautli)	der Mantel – die Mäntel
-e	der Film – die Filme
- " (umlautli) e	die Stadt – die Städte
- er	das Bild – die Bilder
- " (umlautli) er	das Buch – die Bücher
- (e)n	der Student – die Studenten, der Junge – die Jungen
- s	das Auto – die Autos

Yasalishi	Qanday otlar yasaladi
<p>I. Suffikssiz</p> <p><i>Umlautsiz:</i> der Wagen – die Wagen das Zeichen – die Zeichen</p> <p><i>Umlautli:</i> der Mantel – die Mäntel die Mutter – die Mütter</p>	<p>1) -er, -el, -en bilan tugagan mujskoy roddagi otlar;</p> <p>2) -er, -el, -en, -chen, -lein bilan tugagan sredniy roddagi otlar, <i>ge-</i> oldqo'shimchali va (d)e suffiksli otlar;</p> <p>3) jenskiy roddagi ikkita otlar (die Mutter, die Tochter)</p>
<p>II. -e suffiksi bilan</p> <p><i>Umlautsiz:</i> der Tag – die Tage das Heft – die Hefte</p> <p><i>Umlautli:</i> der Platz – die Plätze die Stadt – die Städte</p>	<p>1) mujskoy roddagi otlarning asosiy qismi;</p> <p>2) sredniy roddagi otlarning bir qismi;</p> <p>3) jenskiy roddagi 30 ga yaqin bir bo'g'inli otlar</p>
<p>III. -er suffiksi bilan.</p> <p><i>Umlautsiz:</i> das Lied – die Lieder das Feld – die Felder</p> <p><i>Umlautli:</i> das Buch – die Bücher das Haus – die Häuser</p>	<p>1) sredniy roddagi otlarning asosiy qismi;</p> <p>2) mujskoy roddagi ba'zi bir otlar</p>

IV. -(e)n suffiksi bilan kelgan die Stunde – die Stunden der Student – die Studenten der Mensch – die Menschen der Name – die Namen das Hemd – die Hemden das Museum – die Museen das Thema – die Themen	1) jenskiy roddagi otlarning asosiy qismi; 2) chet tillardan o'zlashgan va -ant, -ent, -at, -ist, -ot, -graph, -or suffixlari bilan tugagan mujskoy roddagi internatsional so'zlar, ba'zi bir bo'g'inli otlar va -e qo'shimchasi bilan tugagan otlar; 3) sredniy roddagi ayrim otlar, shuningdek, -um, -a qo'shimchasi bilan tugagan sredniy roddagi otlar
V. -s suffiksi bilan. das Kino – die Kinos der Klub – die Klubs die Oma – die Omas	1) mujskoy va sredniy roddagi internatsional otlar; 2) jenskiy roddagi bir necha otlar

♦ Ba'zi otlar boshqa so'z yordamida ko'plik yasaydi. Ularni lug'atdan yodlab olish kerak.

der Rat *maslahat* – die Ratschläge *maslahatlar*

jenskiy roddagi **-in** qo'shimchasi ko'plikda **-n-** bo'lib ko'payadi:

die Lehrerin – die **Lehrerinnen**

-nis qo'shimchali otlar ko'plikda **-s-** bo'lib ko'payadi:

Das Ereignis *voqea* – die Ereignisse *voqealar*.

Quyidagi otlar **faqat birlikda** qo'llanadi:

– mavhum otlar: die Trauer *qayg'u*, die Musik *musiqa*;


– donalab sanab bo'lmaydigan otlar: das Gold *tilla*, die Kreide *bo'r*, die Milch *sut*;

– o'lchovni ifodalaydigan otlar: drei Stück Kuchen *uch bo'lak pirog*, 3 Mark *uch marka*;

– Mann «odam» ma'nosidagi otlar: Die Gruppe ist 10 Mann stark *10 kishidan iborat bo'lgan guruh*.

FAQAT KO'PLIKDA QO'LLANADIGAN OTLAR (GEBRAUCH DER NOMEN NUR IM PLURAL)

– jamlovchi otlar: die Ferien *ta'til*, die Eltern *ota-ona*, die Geschwister *aka-uka*;



– geografik nomlar: die Tropen *tropik hududlar*, die Alpen *Alplar*.

Ba'zi nemis tilidagi otlar ham ko'plikni hamda birlikni o'z ichiga oladi: die Brille – die Brillen *ko'zoynak*, die Uhr – die Uhren *soat*.

OTLARNING TURLANISHI (DEKLINATION DER NOMEN)

Kelishiklar (Die Kasus)	Savollari
Nominativ (bosh kelishik)	Wer? Was? Kim? Nima?
Genitiv (qaratqich kelishik)	Wessen? Kimning? Nimaning?
Dativ (jo'nalish kelishik)	Wem? Kimga? Nimaga?
Akkusativ (tushum kelishik)	Wen? Was? Kimni? Nimani?

OTLARNING TURLANISHI

Nemis tilida otlar to'rt xil turlanishga ega: kuchli, kuchsiz, jenskiy va aralash. Har bir turlanishning o'ziga xos kelishik qo'shimchasi bor. Ko'plikda hamma otlar bir xil turlanadi.

OTLARNING QO'SHIMCHALAR JADVALI

Kelishik	Birlik				Ko'plik
	Kuchli turlanish	Kuchsiz turlanish	Jenskiy turlanish	Aralash turlanish	Turlanishning barcha xillari uchun
Nom.	—	—	—	—	—
Gen.	-(e)s	-en	—	-(e)ns	—
Dat.	—	-en	—	-en	-(e)n
Akk.	—	-en	—	-(e)n	—

OTLARNING KUCHLI TURLANISHI (DIE STARKE DEKLINATION DER NOMEN)

Kuchli turlanishning o'ziga xos belgisi otlarning qaratqich kelishigida **-(e)s** qo'shimchasini olishidir.

Mujskoy roddagi otlarning asosiy qismi				das Herz dan tashqari sredniy roddagi barcha otlar	
Nom. der	Tisch	Flieger	Doktor	das Fenster	Diktat
Gen. des	Tisches	Fliegers	Doktors	des Fensters	Diktat(e)s
Dat. dem	Tisch	Flieger	Doktor	dem Fenster	Diktat
Akk. den	Tisch	Flieger	Doktor	das Fenster	Diktat

◆ Eslatma: boshqa tillardan nemis tiliga o'tgan va -us suffiksli otlar Genetiv kelishigida hech qanday qo'shimcha olmaydi.

der Kasus – des Kasus der Modus – des Modus
der Tempus – des Tempus das Genus – des Genus

OTLARNING KUCHSIZ TURLANISHI (DIE SCHWACHE DEKLINATION DER NOMEN)

Kuchsiz turlanishda otlar bosh kelishikdan tashqari hamma kelishiklarda **-(e)n** qo'shimchasini oladi.

Mujskoy roddagi jonli narsalarni ifodalaydigan otlar:

- 1) birlikda **-e** bilan tugagan mujskoy roddagi jonli narsalarni ifodalaydigan otlar: der Genosse, der Junge, der Matrose, der Russe, der Hase;
- 2) undosh bilan tugagan bir bo'g'inli mujskoy roddagi otlar (der Held, der Hirt, der Mensch, der Bär);
- 3) xorijiy tillardan nemis tiliga o'zlashgan va -ant, -ent, -at, -ist, -et, -graph, -log, -nom, -it, -ot, -an (der Pianist, der Musikant, der Student) suffiksli mujskoy roddagi otlar

Nom.	der Junge	Held	Student	Philosoph
Gen.	des Jungen	Helden	Studenten	Philosophen
Dat.	dem Jungen	Helden	Studenten	Philosophen
Akk.	den Jungen	Helden	Studenten	Philosophen

JENSKIY RODDAGI OTLARNING TURLANISHI (DIE WEIBLICHE DEKLINATION DER NOMEN)

O'ziga xos jihati: jenskiy roddagi turlanishga kiradigan otlar kelishik qo'shimchalarini olmasdan turlanadi.

Bu turlanishga faqat jenskiy roddagi otlar kiradi.

Jenskiy roddagi barcha otlar				
Nom.	die Frau	Wand	Übung	Universität
Gen.	der Frau	Wand	Übung	Universität
Dat.	der Frau	Wand	Übung	Universität
Akk.	die Frau	Wand	Übung	Universität

OTLARNING ARALASH TURLANISHI (DIE GEMISCHTE DEKLINATION DER NOMEN)

O'ziga xos tomoni: otlar qaratqich kelishigida **-(en)s** qo'shimchasini oladi, Dativ va Akkusativ kelishigida **das Herz** otidan tashqari **-en** qo'shimchasini oladi.

Mujskoy roddagi bir necha otlar (der Name, der Friede(n), der Buchstabe, der Gedanke va b.) va sredniy roddagi bitta Das Herz oti.				
Nom.	der Name	Buchstabe	Frieden	das Herz
Gen.	des Namens	Buchstabens	Friedens	des Herzens
Dat.	dem Namen	Buchstaben	Frieden	dem Herzen
Akk.	den Namen	Buchstaben	Frieden	das Herz

OTLARNING KO'PLIKDA TURLANISHI (DEKLINATION DER NOMEN IM PLURAL)

O'ziga xos tomoni: Dativ kelishigida hamma otlar ko'plikda **-(e)n** qo'shimchasini oladi.

Nom.	die Tische	die Bücher	die Nächte
Gen.	der Tische	der Bücher	der Nächte
Dat.	den Tischen	den Büchern	den Nächten
Akk.	die Tische	die Bücher	die Nächte

**DAVLAT, QIT'A, MA'LUM HUDUD VA ULARDA
YASHOVCHILAR RO'YXATI**

Davlat, qit'a, ma'lum hudud	Yashovchi (erkak, ayol)	Sifat
Afghanistan	Afghane, Afghanin	afghanisch
Afrika	Afrikaner, -in	afrikanisch
Ägypten	Ägypter, -in	ägyptisch
Albanien	Albaner, -in	albanisch
Algerien	Algerier, -in	algerisch
Amerika	Amerikaner, -in	amerikanisch
Argentinien	Argentinier, -in	argentinisch
Armenien	Armenier, -in	armenisch
Aserbaidshan	Aserbaidshaner, -in	aserbaidshanisch
Asien	Asiate, -in	asiatisch
Australien	Australier, -in	australisch
Baden	Badener, -in	badisch
das Baltikum	Balte, Baltin	baltisch
Bayern	Bayer, -in	bay(e)risch
Belgien	Belgier, -in	belgisch
Bosnien	Bosnier, -in	bosnisch
Brandenburg	Brandenburger, -in	—
Brasilien	Brasilianer, -in	brasilianisch
Bulgarien	Bulgare, Bulgarin	bulgarisch
Chile	Chilene, Chilenin	chilenisch
China	Chinese, Chinesin	chinesisch
Dänemark	Däne, Dänin	dänisch
Deutschland/die BRD	Deutscher, Deutsche	deutsch
England	Engländer, -in	englisch
Estland	Este, Estin	estnisch
Europa	Europäer, -in	europäisch
Finnland	Finne, Finnin	finnisch
Frankreich	Franzose, Französin	französisch
GUS = Gemeinschaft Unabhängiger Staaten	Einwohner(in) der GUS	—
Georgien	Georgier, -in	georgisch
Griechenland	Grieche, Griechin	griechisch
Großbritannien	Brite, Britin	britisch
Hessen	Hesse, Hessin	hessisch
Holland	Holländer, -in	holländisch

Indian	Inder, -in	indisch
Indonesin	Indonesier,-in	indonesisch
Der Irak	Iraker, -in	irakisch
Der Iran	Iraner, -in	iranisch
Irland	Ire, Irin	irisch
Island	Isländer, -in	isländisch
Israel	Israeli, Israeli	israelisch
Italien	Italiener, -in	italienisch
Japan	Japaner, -in	japanisch
Jugoslawien	Jugoslawe, Jugoslawin	jugoslawisch
Kanada	Kanadier,-in	kanadisch
Die Kanarischen Inseln	Kanarier, -in	kanarisch
Kasachstan	Kasache, Kasachin	kasachisch
Kirgisien	Kirgise, Kirgisin	kirgisisch
Kolumbien	Kolumbianer,-in	kolumbianisch
Der Kongo	Kongolese, Kongolesin	kongolesisch
Korea	Koreaner, -in	koreanisch
Kroatien	Kroate, Kroatin	kroatisch
Kuba	Kubaner, -in	kubanisch
Lettland	Lette, Lettin	lettisch
der Libanon	Libanese, Libanesin	libanesisch
Liberia	Liberianer, -in	liberianisch
Libyen	Libyer,-in	libysch
Liechtenstein	Liechtensteiner, -in	liechtensteinisch
Litauen	Litauer, -in	litauisch
Luxemburg	Luxemburger, -in	luxemburgisch
Madagaskar	Madagasse, Madagassin	madagassisch
Makedonien	Makedonien, -in	makedonisch
Marokko	Marokkaner, -in	marokkanisch
Mecklenburg	Mecklenburger, -in	mecklenburgisch
Mexiko	Mexikaner, -in	mexikanisch
Moldau	Moldauer, -in	moldauisch
die Mongolei	Mongole, Mongolin	mongolisch
die Niederlande	Niederländer, -in	niederländisch
Niedersachsen	Niedersachse, -sächsin	niedersächsisch
Norwegen	Norweger, -in	norwegisch
Österreich	Österreicher, -in	österreichisch
Pakistan	Pakistaner, -in	pakistanisch
Persien	Perser, -in	persisch

Peru	Peruaner, -in	peruanisch
die Philippinen	Philippiner, -in	philippinisch
Polen	Pole, Polin	polnisch
Portugal	Portugiese, Portugiesin	Portugiesisch
Preußen	Preuße, Preußin	Preußisch
Rheinland	Rheinländer, -in	rheinländisch
Rumänien	Rumäne, Rumänin	rumänisch
Russland	Russe, Russin	russisch
Saarland	Saarländer, -in	saarländisch
Sachsen	Sachse, Sächsin	sächsisch
Schleswig	Schleswiger, -in	schlesisch
Schottland	Schotte, Schottin	schottisch
Schwaben	Schwabe, Schwäbin	schwäbisch
Schweden	Schwede, Schwedin	schwedisch
die Schweiz	Schweizer, -in	schweizerisch
Serbien	Serbe, Serbin	serbisch
Sibirien	Sibirier, -in	sibirisch
Sizilien	Sizilianer, -in	sizilianisch
die Slowakei	Slowake, Slowakin	slowakisch
Slowenien	Slowene, Slowenin	slowenisch
Spanien	Spanier, -in	spanisch
der Sudan	Sudanese, Sudanesein	sudanesisch
Syrien	Syrer, -in	syrisch
Tadschikistan	Tadschike, Tadschikin	tadschikisch
Taiwan	Taiwaner, -in	taiwanisch
die Tschechische	Tscheche, Tschechin	tschechisch
Tunesien	Tunesier, -in	tunesisch
die Türkei	Türke, Türkin	türkisch
Turkmenien	Turkmene, Turkmenin	turkmenisch
die Ukraine	Ukrainer, -in	ukrainisch
Ungarn	Ungar, -in	ungarisch
Usbekistan	Usbeke, Usbekin	usbekisch
die Vereinigten Staaten von Amerika (die USA)	Amerikaner, -in	(US)- amerikanisch
Vietnam	Vietnamese, Vietnamesin	vietnamesisch
Weißrussland	Weißrusse, Weißrussin	weißrussisch
Westfalen	Westfale, Westfälin	westfälisch
Württemberg	Württemberger, -in	württembergisch
Zypern	Zypriot, -in	zypriotisch

SIFAT (DAS ADJEKTIV)

Sifatlar predmetning belgisini, xususiyatini ifodalaydi va **Wie?** (Qanday? Qanaqa?) savoliga javob beradi. Sifatlar shaxsga, predmetga, fikrga baho beradi, gapni bezaydi, unga ifodalilik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Nemis tilida sifatlar uch xil turlanadi: kuchli, kuchsiz, aralash. Sifatlar o'zidan oldin rod, son yoki kelishik bildiruvchi so'zlar – artikl, olmosh yoki sonning bor-yo'qligiga qarab turlanadi.

SIFATLARNING KUCHLI TURLANISHI (DIE STARKE DEKLINATION DER ADJEKTIVE)

Kuchli turlanishga quyidagilar kiradi:

1) artiklsiz otlar va birlik hamda ko'plikdagi olmoshlar bilan birga (schwarzer Kaffee, warme Milch);

2) bundan tashqari, ko'plikda **viele, einige, wenige, andere, verschiedene** (viele alte Häuser, einige interessante Bücher) dan keyin va **zwei, fünf** (zwei treue Freunde) sanoq sonlaridan keyin.

SIFAT QO'SHIMCHALARI JADVALI

Kelishik	Birlik			Ko'plik (m, n, f)
	m	n	f	
Nom.	-er	-es	-e	-e
Gen.	-en	-en	-er	-er
Dat.	-em	-em	-er	-en
Akk.	-en	-es	-e	-e

Keli- shik	Birlik			Ko'plik (m, n, f)
	m	n	f	
Nom.	heiße r Tee	schöne s Wetter	klare Luft	gute Tage
Gen.	heiße n Tees	schöne n Wetters	klare r Luft	gute r Tage
Dat.	heiße m Tee	schöne m Wetter	klare r Luft	gute n Tagen
Akk.	heiße n Tee	schöne s Wetter	klare Luft	gute Tage

SIFATLARNING KUCHSIZ TURLANISHI (DIE SCHWACHE DEKLINATION DER ADJEKTIVE)

Sifatlarning kuchsiz turlanishiga quyidagilar kiradi:

1) birlik va ko'plikdagi aniq artikldan keyin (der alte Mann, das kleine Kind, die nette Frau);

2) olmoshdan keyin: dieser, jener, jeder, welcher, solcher (dieser interessante Roman, jenes bekannte Buch, solche schwere Frage);

3) ko'plikda: mein, dein, sein, ihr olmoshlaridan keyin; yana keine, alle, beide (meine alten Freunde, alle guten Noten, beide neuen Schüler)dan keyin.

Kelishik	Birlik			Ko'plik (m, n, f)
	m	n	f	
Nom.	-e	-e	-e	-en
Gen.	-en	-en	-en	-en
Dat.	-en	-en	-en	-en
Akk.	-en	-e	-e	-en

Kelishik	Birlik			Ko'plik (m, n, f)
	m	n	f	
Nom.	der alte Mann	das kleine Kind	die junge Frau	die kurzen Tage
Gen.	des alten Mannes	des kleinen Kindes	der jungen Frau	der kurzen Tage
Dat.	dem alten Mann	dem kleinen Kind	der jungen Frau	den kurzen Tagen
Akk.	den alten Mann	das kleine Kind	die junge Frau	die kurzen Tage

SIFATLARNING ARALASH TURLANISHI (DIE GEMISCHTE DEKLINATION DER ADJEKTIVE)

Noaniq artikl, egalik olmoshlari va **kein** inkor olmoshi (ein lustiger Junge, seine neue Jacke, ihr schönes Kleid, keine leichte Frage)dan keyin kelgan birlikdagi sifatlar aralash turlanadi.

Turlanishning bu turi faqat birlikda bo'ladi, chunki noaniq artikl ko'plik shakliga ega emas.

♦ Eslatma: **kein** inkor olmoshidan va ko'plikdagi egalik olmoshlaridan keyin sifat kuchsiz turlanadi.

Kelishik	Birlık		
	m	n	f
Nom.	-er	-es	-e
Gen.	-en	-en	-en
Dat.	-en	-en	-en
Akk.	-en	-es	-e

Keli-shik	Birlık		
	m	n	f
Nom.	ein alter Mann	ein kleines Kind	eine junge Frau
Gen.	eines alten Mannes	eines kleinen Kindes	einer jungen Frau
Dat.	einem alten Mann	einem kleinen Kind	einer jungen Frau
Akk.	einen alten Mann	ein kleines Kind	eine junge Frau

SIFATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

• sifatlar quyidagi qo'shimchalar bilan tugaganda:

-er bitter, teuer;

-en eigen, trocken;

-el dunkel, edel

turlanishda oxirgi bo'g'indagi **-e-** unlisini yo'qotadi:

der dunkle Stoff, der trockenene yoki trocken Keller, ein bitterer Kaffee

• **Hoch** sifati tugallanishidan oldin **-c-** harfini yo'qotadi (das hohe Gebäude)

• Nemis tilida shunday sifatlar borki, ular umuman turlanmaydi.

TURLANMAYDIGAN SIFATLAR (NICHT DEKLINIERBARE ADJEKTIVE)

1) Shahar nomlaridan -er suffiksi yordamida yasalgan sifatlarda (die Frankfurter Messe, der Moskauer Bahnhof). Ular katta harf bilan yoziladi.		2) -a suffiksi bilan tugagan sifatlarda: rosa, lila, prima	
Nom.	die Petersburger Zeitung	Nom.	das rosa Band
Gen.	der Petersburger Zeitung	Gen.	des rosa Bandes
Dat.	der Petersburger Zeitung	Dat.	dem rosa Band
Akk.	die Petersburger Zeitung	Akk.	das rosa Band

OTLASHGAN SIFATLAR (NOMINALISIERTE ADJEKTIVE)

Otlashgan sifatlarda xuddi sifatlarga o'xshab turlanadi. Odatda, ular artikl bilan qo'llanadi va bosh harf bilan yoziladi. Agar otlashgan sifatlarda shaxsni bildirib kelsa, mujsskoj yoki jenskiy rodda turadi. Sredniy roddagi otlashgan sifatlarda abstrakt tushunchani ifodalaydi (der Alte, der Arbeitslose, der Fremde, der Verwandte, der Deutsche, die Kranke, das Neue).

Birlik				Ko'plik			
Nom.	der	Kranke	ein	Kranker	die	Kranken	Kranke
Gen.	des	Kranken	eines	Kranken	der	Kranken	Kranker
Dat.	dem	Kranken	einem	Kranken	den	Kranken	Kranken
Akk.	den	Kranken	einen	Kranken	die	Kranken	Kranke

SIFAT DARAJALARI (DIE STEIGERUNGSSTUFEN DER ADJEKTIVE)

Sifatlarda nemis tilida o'zbek tilidagidek uch darajaga ega: oddiy daraja (der Positiv), qiyosiy daraja (der Komparativ) va orttirma daraja (der Superlativ).

Oddiy daraja	sifatning negizi	+	—	schnell
Qiyosiy daraja	sifatning negizi	+	er	schneller
Orttirma daraja	sifatning negizi	+	-st-, -est-	schnellst-

Qiyosiy daraja sifatga **-er** suffiksini qo'shish bilan, orttirma daraja esa **-st** suffiksini qo'shish bilan yasaladi. Shuni yodda tutish lozimki, orttirma daraja ikki shaklga ega:

1) turlanmaydigan, u **-en** qo'shimchasi hamda sifat oldidan **am** yuklamasini qo'shish bilan yasaladi (klein – am kleinsten):

2) turlanadigan, u sifatlarning kuchsiz turlanishi kabi turlan-ganda xuddi shunday suffiksni qo'shish orqali yasaladi, chunki orttirma darajadagi sifat hamma vaqt aniq artikl bilan qo'llana-di (der schöne Tag – der schönste Tag, die breite Straße – die breiteste Straße, das alte Märchen – das älteste Märchen).

O'zagida a, o, u unilari bo'lgan sifatlar qiyosiy va orttirma da-rajada umlaut oladi.

Oddiy daraja (der Positiv)	Qiyosiy daraja (der Komparativ)	Orttirma daraja (der Superlativ)
klein	kleiner	der (das, die) kleinste, am kleinsten
alt	älter	der (das, die) älteste, am ältesten
schön	schöner	der (das, die) schönste, am schönsten

DARAJALARNING O'ZIGA XOS SHAKLI (BESONDERHEITEN DER STEIGERUNGSSTUFEN)

Ayrim ham sifat, ham ravishni ifodalovchi so'zlar noto'g'ri da-rajalanadi. Bu shakllarni yodlab olish kerak.

Oddiy daraja (der Positiv)	Qiyosiy daraja (der Komparativ)	Orttirma daraja (der Superlativ)
groß (<i>katta</i>)	größer	der größte/am größten
gut (<i>yaxshi</i>)	besser	der beste/ am besten
hoch (<i>baland</i>)	höher	der höchste/ am höchsten
nah (<i>yaqin</i>)	näher	der nächste/ am nächsten
viel (<i>ko'p,</i> <i>ko'plar</i>)	mehr	die meisten/ am meisten

Quyidagi sifatlar qiyosiy darajaga ega emas:

der äußere – der äußerste der innere – der innerste

der hintere – der hinterste der obere – der oberste
 der untere – der unterste der vordere – der vorderste

Wir saßen in der vordersten Reihe.
 Biz oldingi qatorda o'tirgan edik.

QIYOSLASH (DER VERGLECH)

Oddiy darajada ikki predmetning (shaxsning) sifatini qiyoslaganda quyidagi bog'lovchilar qo'llanadi: **wie** (qanday), **ebenso ... wie, genauso... wie** (xuddi ...day)

Er ist **ebenso** groß **wie** du.

Qiyosiy darajada esa ikki predmet (shaxs) qiyoslanganda **als** bog'lovchisi qo'llanadi.

Er ist größer **als** du.

OLMOSH (DAS PRONOMEN)

Olmosh predmetni, uning belgisini anglatmay, balki ularni ko'rsatish, mavjudligini bildirish uchun xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda olmoshlarning tasnifi berilgan.

1.	Kishilik olmoshlari (die Personalpronomen)	ich men, du sen, er u, sie u, es u, wir bizlar, ihr sizlar, sie ular, Sie Siz
2.	Egalik olmoshlari (die Possessivpronomen)	mein mening, dein sening, sein uning, ihr uning (ayol), unser bizlarning, euer sizlarning, ihr ularning, Ihr Sizning
3.	Ko'rsatish olmoshlari (die Demonstrativpronomen)	dieser, diese, dieses bu, shu; diese bular, shular; derselbe, dieselbe, dasselbe xuddi shuning o'zi; dieselben shularning o'zi; jener, jene, jenes u, o'sha; jene ular; derjenige, diejenige, dasjenige u, o'sha; diejenigen o'shalar; solcher, solche, solches, solche bunday, shunday

4.	So'roq olmoshlari (die Interrogativpronomen)	wer kim, was nima, wessen kimniki, kimlarning, welcher qanday, welche qanaqa, welches qanday, welche qanday (ko'pl.), was für ein qanday
5.	Nisbiy olmoshlar (die Relativpronomen)	der qay biri, die qaysinisi, das qaysi, die qaysilar, welcher qay biri, welche qaysinisi, welches qaysi, welche qaysilar
6.	O'zlik olmoshi (das Reflexivpronomen)	sich o'ziga (o'zini)
7.	Shaxssiz olmosh (das unpersönliche Pronomen)	es
8.	Noaniq (gumon) olmoshlari (die Indefinitpronomen)	man, einer bitta, jemand kimdir, jeder har kim, einige ba'zilar, mehrere bir nechta, jedermann har bir, alle hamma, viele ko'p, wenige kam
9.	Birgalik olmoshi (das Reziprokpronomen)	einander va uning predloglar bilan birikmasi: beieinander, miteinander, zueinander, füreinander va boshqalar
10.	Inkor (bo'lishsizlik) olmoshi (das Negativpronomen)	niemand hech kim, kein, nichts hech nima, hech narsa

KISHILIK OLMOSHLARI (DIE PERSONALPRONOMEN)

Kishilik olmoshlari gapda quyidagicha qo'llanilishi mumkin:

- 1) ega: **Wir** lernen Deutsch. Lernt **ihr** auch Deutsch?
- 2) to'ldiruvchi: Mein Hund heißt Rex. Ich habe **ihn** gern. Ich gebe **ihm** Futter. Ich Sorge für **ihn**.
- 3) sifatning ot qismi: Wer ist das? – Das bin **ich**.

Keli-shik	Birlik					Ko'plik		
	1-shaxs	2-shaxs	3-shaxs			1-shaxs	2-shaxs	3-shaxs
N	ich	du	er	sie	es	wir	ihr	sie
G*	meiner	deiner	seiner	ihrer	seiner	unser	eurer	ihrer
D	mir	dir	ihm	ihr	ihm	uns	euch	ihnen
A	mich	dich	ihn	sie	es	uns	euch	sie

* Kishilik olmoshlari qaratqich kelishigida juda kam qo'llanadi.

Agar gapda ikkita to'ldiruvchi ot bo'lib kelsa, undan avval Dativ kelishigi turadi, keyin Akkusativ kelishigi. Ammo gapda ikkita to'ldiruvchi kishilik olmoshi bo'lib kelsa, olmosh birinchi bo'lib Akkusativ kelishigida, keyin esa Dativ kelishigida turadi.

Dat. Akk.

Ich kaufe der Mutter Blumen.

Akk. Dat.

Ich schenke sie ihr morgen zum Geburtstag.

EGALIK OLMOSHLARI (DIE POSSESSIVPRONOMEN)

Har bir kishilik olmoshiga ma'lum bir egalik olmoshi to'g'ri keladi. Egalik olmoshi **Wessen?** (Kimning? Kimniki?) savoliga javob beradi va predmetning biror shaxsga qarashli ekanligini bildiradi. Ular, odatda, otdan oldin keladi va aniqlanmish bilan rod, son, kelishikda moslashadi.

Der Vater liebt seine Kinder, seinen Sohn, seine Tochter. Die Mutter liebt ihre Kinder.

BIRLIK VA KO'PLIK SONDA BOSH KELISHIKDAGI EGALIK OLMOSHLARI

Kishilik olmoshlari	Birlik			Ko'plik (m,n,f)
	m	n	f	
ich	mein Kuli	mein Heft	meine Schere	meine Bücher
du	dein Kuli	dein Heft	deine Schere	deine Bücher
er	sein Kuli	sein Heft	seine Schere	seine Bücher
sie	ihr Kuli	ihr Heft	ihre Schere	ihre Bücher
es	sein Kuli	sein Heft	seine Schere	seine Bücher
wir	unser Kuli	unser Heft	unsere Schere	unsere Bücher
ihr	euer Kuli	euer Heft	eure Schere	eure Bücher
sie	ihr Kuli	ihr Heft	ihre Schere	ihre Bücher
Sie	Ihr Kuli	Ihr Heft	Ihre Schere	Ihre Bücher

SO'ROQ OLMOSHLARI (DIE INTERROGATIVPRONOMEN)

Wer? Kim?

Was? Nima?

Welcher? Welches? Welche? Qaysi?

Welche? Qanaqangi?

* **Was für ein? Was für eine?** Qanaqa?

Wer olmoshi gapda ega bo'lib keladi, chunki bosh kelishikda turadi. 3-shaxs birlikda kelgan fe'l u bilan moslashadi. Wer olmoshi kelishiklarda o'zgarishi mumkin.

Wer wohnt in diesem Haus? **Wessen** Haus ist das? **Wem** gehört dieses Haus? **Wen** siehst du im Haus?

Wer olmoshidan farqli o'laroq, was olmoshi turlanmaydi va gapda nafaqat ega (Was ist dort?), balki to'ldiruvchi (Was suchst du?) bo'lib ham qo'llanadi.

WER, WAS OLMOSHLARINING TURLANISHI

Nom.	Wer? Kim?	Was? Nima?
Gen.	Wessen? Kimning	—
Dat.	Wem? Kimga?	—
Akk.	Wen? Kimni?	Was? Nima?

Welch (welcher, welches, welche) olmoshi so'roq gapda shaxs yoki predmetni unga o'xshaganlardan ajratmoqchi bo'lganda qo'llanadi. Javobda aniq artikl ishlatiladi:

Welches Kleid wollen Sie heute anziehen: das gelbe oder das blaue? – Natürlich das blaue!

Welch (welcher, welches, welche) olmoshi ham mustaqil ravishda hamda ot bilan birikib qo'llanishi mumkin.

Ich habe hier zwei Bücher. Welches gefällt dir am besten? / Welches Buch gefällt dir am besten?

Welch olmoshi aniq artikl kabi turlanadi.

WELCHER, WELCHES, WELCHE OLMOSHLARINING TURLANISHI

Kelishik	Birlik			Ko'plik (m, n, f)
	m	n	f	
Nom.	welcher ?	welches?	welche?	welche?
Gen.	welches?	welches?	welcher?	welcher?
Dat.	welchem?	welchem?	welcher?	welchen?
Akk.	welchen?	welches?	welche?	welche?

Was für ein (eine, ein)? olmoshi savolda shaxs yoki predmetning (birlikda) sifati, xususiyati haqida qo'llanadi. Javobda noaniq artikl ishlatiladi.

Was für ein Zimmer ist das? – Das ist **ein** großes und helles Zimmer.

In **was für einer** Straße wohnst du? – In **einer** schönen breiten Straße mit Bäumen.

WAS FÜR EIN, WAS FÜR EINE OLMOSHLARINING TURLANISHI

Keli-shik	Birlik			Ko'plik (m, n, f)
	m	n	f	
Nom.	was für ein?	was für ein?	was für eine?	was für (welche)?
Gen.	was für eines?	was für eines?	was für einer?	—
Dat.	was für einem?	was für einem?	was für einer?	was für (welchen)?
Akk.	was für einen?	was für ein?	was für eine?	was für (welche)?

NISBIY OLMOSHLAR (DIE RELATIVPRONOMEN)

Nisbiy olmoshlarga **der, die, das; die** kiradi. Ular ko'rsatish olmoshlari – **der, die, das; die** ga o'xshab turlanadi.

Nisbiy olmosh vazifasida **wer** va **was** (ularning turlanishi yuqorida ko'rsatilgan) qo'llanadi, kam hollarda **welcher**, **welche**, **welches**; **welche** ishlatiladi. Ularning turlanishi yuqorida ko'rsatilgan.

Der Apparat, der dort steht, war sehr teuer.

Der Apparat, dessen wir uns meistens bedienen, ist nicht neu.

Der Apparat, dem diese Teile fehlen, kann nicht funktionieren.

Der Apparat, den wir benutzen, arbeitet gut.

SICH O'ZLIK OLMOSHI (DAS REFLEXIVPRONOMEN SICH)

Nemis tilida o'zlik olmoshi fe'l bilan alohida yoziladi.

U yuvinmoqda. Er wäscht sich.

Sich olmoshi bilan kelgan fe'llar o'zlik nisbati deyiladi.

Sich o'zlik olmoshi faqat 3-shaxs birlik va ko'plikda qo'llanadi. Boshqa shaxslar uchun Dativ kelishigi va Akkusativ kelishigidagi shunga muvofiq kishilik olmoshi ishlatiladi.

Birlik		Ko'plik	
ich	wasche mich	wir	waschen uns
du	wäschst dich	ihr	wascht euch
er, sie,	wäscht sich	sie	waschen sich
es		Sie	waschen sich
Birlik		Ko'plik	
ich	sehe mir den Film an	wir	sehen uns den Film an
du	siehst dir den Film an	ihr	seht euch den Film an
er, sie,	sieht sich den Film an	sie	sehen sich den Film an
es		Sie	sehen sich den Film an

Gapda **sich** (**mir**, **dir**, **uns**, **euch**) olmoshi so'zlar ketma-ketligi to'g'ri bo'lgan hollarda bevosita kesimning tuslangan qismidan keyin qo'yiladi:

Sie wäscht **sich** immer kalt.

So'zlar tartibi teskari kelganda va so'roq gaplarda, agar ega shaxs olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, **sich** shaxs olmoshidan keyin qo'yiladi:

Am Morgen wäscht sie **sich** immer kalt. Wann wäscht sie **sich** kalt?

ES SHAXSSIZ OLMOSHI (DAS UNPERSÖNLICHE PRONOMEN ES)

ES SHAXSSIZ OLMOSHI QO'LLANADIGAN HOLATLAR

Gapda tabiat hodisalarini ifodalovchi sof shaxssiz fe'llar qo'llangan bo'lsa	Es schneit (regnet, blitzt). Es ist kalt. Es ist heiß. Es wird Abend.	<i>Qor yog'moqda (yomg'ir yog'moqda, momaqaldiroq gumburlamoqda). Sovuq. Issiq. Qorong'i tushmoqda.</i>
Agar ega ishtirokchi bo'lmasa yoki o'zini tanishtirmasa	Es klopft. Es läutet. Es schreit.	<i>Taqillatishmoqda. Chalishmoqda. Baqirishmoqda.</i>
Es gibt, es geht, es handelt sich um, es steht, es fehlt, es zieht kabi gap qurilmalarida	Im Zoo gibt es Löwen, Tiger, Wölfe und andere Tiere. Wie geht es Ihnen? Worum handelt es sich?	<i>Hayvonot bog'ida sherlar, yo'lbarslar, bo'rilar va boshqa hayvonlar bor. Ahvolingiz qalay? Gap nima haqda bormoqda?</i>
Odamning jismoniy hislari va kayfiyatida; to'g'ri so'z tartibida es ega sifatida gapning boshida turadi, teskari so'z tartibida esa es tushib qoladi.	Es friert mich. Mich friert. Es ist mir übel. Mir ist übel. Es hungert (dürstet) mich.	<i>Etim uvushib ketyapti. Tobim qochdi. Ovqatlangim (ichgim) kelyapti.</i>
«Voqeaband» fe'llarda: sich ereignen, gelingen, geschehen,	Es ist ein Unglück geschehen. Es trifft sich gut.	<i>Baxtsizlik yuz berdi. Bu juda o'rinli (yaxshi).</i>

glücken, mißlingen, mißglücken, sich treffen		
Sich o'zlik olmoshti fe'llar bilan kelganda	Hier fährt es sich schlecht. Auf dem Lande lebt es sich gut.	<i>Bu yerdan qatnash yomon. Shahar tashqarisida yashash yaxshi.</i>

NOANIQ (GUMON) OLMOSHLAR (DIE INDEFINITPRONOMEN)

- man – tarjima qilinmaydi
 viele – ko'plar, ko'pchilik
 wenige – kam odam
 einige – ba'zilar
 mehrere – bir necha, ko'pgina
 alle – hamma
 jeder (jedes, jede) – har bir
 einer – kimdir
 jemand – kimdir

NOANIQ OLMOSHLARNING TURLANISHI

	Birlik			Ko'plik		
Nom.	jemand	jeder	jedermann	alle	wenige	viele
Gen.	jemand's	jedes	jedermann's	aller	weniger	vieler
Dat.	jemandem	jedem	jedermann	allen	wenigen	vielen
Akk.	jemanden	jeden	jedermann	alle	wenige	viele

Ist hier jemand? *Bu yerda kimdir bormi?*

Einer für **alle** und **alle** für **einen**. *Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun.*

Er besucht seine Oma **jeden** zweiten Tag. *U buvisini kunora ko'rishga boradi.*

Alle Leute gingen auf die Straße. *Hamma odamlar ko'chaga chiqdi.*

Viele Touristen besuchen unsere Stadt. *Ko'pgina turistlar shahrimizni ko'rgani kelishadi.*

Heute **haben** wir **wenig** Brot. *Bugun nonimiz kam.*

MAN NOANIQ SHAXS OLMOSHI

<p>Man olmoshli gaplarda ish-harakatni bajaruvchi shaxs aniq ko'rsatilmaydi. Gapda doim ega bo'lib keladi. Man shaxsi noaniq olmosh bilan kelgan fe'l hamma vaqt 3-shaxs birlikda tura-di. Bunday gaplar o'zbek tiliga ko'pincha 3-shaxs ko'plikda tarjima qilinadi.</p>	<p>Man hat mir das Buch geschenkt. <i>Menga kitob sovg'a qilishdi.</i></p>
<p>Man olmoshi modal fe'llar bilan qo'llanib, shaxssiz gap sifatida tarjima qilinadi.</p>	<p>Man muß – kerak, darkor, man soll – lozim, zarur, man kann – mumkin, man darf – mumkin, ruxsat, man darf nicht – mumkin emas, ijozat etilmaydi.</p>
<p>Man Präsens Konjunktiv 3-shaxs birlikdagi fe'l bilan kelganida «fe'lning Infinitivi + «kerak» shaklida tarjima qilinadi.</p>	<p>Man gieße ein Glas Milch. <i>Bir stakan sut ichish kerak.</i></p>

**BIRGALIK OLMOSHLARI
(DIE REZIPROKPRONOMEN)**

Birgalik olmoshlariga **einander** olmoshi hamda uning **beieinander**, **miteinander**, **zueinander**, **füreinander** va boshqa old ko'makchilar bilan birikkan shakllari kiradi. Ular ish-harakatning o'zaro xarakterini ifodalaydi.

Wir wünschen **einander** viel Glück.
Biz bir-birimizga baxt tilaymiz.

Birgalik olmoshlari ot vazifasini bajaradi.

**INKOR (BO'LISHSIZLIK) OLMOSHLARI
(DIE NEGATIVPRONOMEN)**

niemand – hech kim
nichts – hech narsa
kein – (otlarni inkor etish uchun qo'llanadi)

KEIN INKOR OLMOSHINING TURLANISHI

	Birlik			Ko'plik
	m	n	f	
Nom.	kein	kein	keine	keine
Gen.	keines	keines	keiner	keiner
Dat.	keinem	keinem	keiner	keinen
Akk.	keinen	kein	keine	keine

Kein inkor olmoshi otdan oldin qo'llanadi hamda ular bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Ular noaniq artiklday turlanadi.

Hast du eine Katze? – Nein, ich habe **keine** Katze.

Mushuging bormi? – Yo'q, menda mushuk yo'q.

Hast du einen Hund? – Nein, ich habe auch **keinen** Hund.

Kuchuging bormi? – Yo'q, menda kuchuk yo'q.

NIEMAND INKOR OLMOSHINING TURLANISHI

Nom.	niemand
Gen.	niemands
Dat.	niemand(em)
Akk.	niemand(en)

Niemand shaxsni ifodalovchi ot vazifasini bajaradi. **-en** va **-em** shakllari kam qo'llanadi.

Niemand ist hier. Bu yerda hech kim yo'q.

Jedermanns Freund ist **niemands** Freund.

Har kimning do'sti – hech kimning do'sti.

NICHTS INKOR OLMOSHI

Nichts inkor olmoshi ot vazifasida kelib birlikdagi jonsiz predmetlarni ifodalaydi. U turlanmaydi.	Sie hat ihr nichts gegeben. <i>U unga hech narsa bermadi.</i> Um nichts in der Welt! <i>Ikki dunyoda ham!</i>
Nichts ko'pincha sein va haben bilan qo'llanadi.	In diesem Zimmer ist nichts . <i>Bu xonada hech narsa yo'q.</i> Ich hatte nichts . <i>Menda hech narsa yo'q edi.</i>

Sein va haben fe'llari nichts mehr bilan birikkanda ishlatiladi, ayniqsa, ketidan Infinitiv kelsa.	Ich habe nichts mehr zu sagen. <i>Boshqa hech narsa aytolmayman.</i>
Nichts inkor olmoshidan keyin kelgan otlashgan sifatlar katta harf bilan yoziladi.	In der Zeitung stand nichts Interessantes. <i>Gazetada qiziqarli hech narsa yo'q edi.</i>

SON (DAS NUMERALE, DAS ZAHLWORT)

Son predmetning son-sanog'ini, miqdorini va tartibini ifodalovchi so'z turkumidir. Sonlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) sanoq sonlar (die Grundzahlwörter, die Kardinalzahlen) – wieviel? (qancha, necha, nechta?) so'rog'iga javob beradi:

vier Tage, zwei Freunde, drei Fehler;

2) tartib sonlar (die Ordnungszahlwörter) – der wievielte? (nechanchi?) so'rog'iga javob beradi:

der 1. September (der erste September), der 8. März (der achte März);

3) kasr sonlar: (die Bruchzahlwörter)

ein Drittel (uchdan bir qism), ein zwanzigstel (1/20), 3,6 (drei Komma sechs). Ular gapda ega, kesimning bir qismi, aniqlovchi, hol bo'lib keladi.

SANOQ SONLARNING YASALISHI (BILDUNG DER GRUNDZAHLWÖRTER)

0	null					40	vierzig
1	eins	11	elf	21	einundzwanzig	50	fünfzig
2	zwei	12	zwölf	22	zweiundzwanzig	60	sechzig

3	drei	13	dreizehn	23	dreiundzwanzig	70	siebzig
4	vier	14	vierzehn	24	vierundzwanzig	80	achtzig
5	fünf	15	fünfzehn	25	fünfundzwanzig	90	neunzig
6	sechs	16	sechzehn	26	sechszwanzig	100	(ein)hundert
7	sieben	17	siebzehn	27	siebenundzwanzig	200	zweihundert
8	acht	18	achtzehn	28	achtundzwanzig	1 000	(ein)tausend
9	neun	19	neunzehn	29	neunundzwanzig	10 000	zehntausend
10	zehn	20	zwanzig	30	dreißig	1000000	eine Million

0 dan 12 gacha bo'lgan sanoq sonlar sodda sonlarga kiradi. 13 dan 19 gacha bo'lgan sanoq sonlar yasama sonlardir. Ular sodda sonlarga **zehn** sonini qo'shish bilan yasaladi. O'nliklar ham yasama sonlardir. Ular sodda sonlarga -zig suffiksini qo'shish orqali yasaladi. Bundan 30 – **dreißig** mustasno.

21 dan 99 gacha bo'lgan sanoq sonlar qo'shma sonlardir. Ular **und** bog'lovchisi orqali yasaladi va bir so'zday qo'shib yoziladi. Aytishda va yozishda birinchi o'rinda birlik, ikkinchi o'rinda **und**, oxirida o'nlik qo'yiladi.

35 fünfundzwanzig

48 achtundvierzig

99 neunundneunzig

123 (ein) hundertdreiundzwanzig

1456 (ein) tausendvierhundertsechszwanzig

999 999 gacha bo'lgan barcha nemis tilidagi sanoq sonlar bita so'zda yoziladi.

256 310 zweihundertsechszwanzigtausenddreihundertzehn.

Quyidagi sanoq sonlar katta harf bilan yoziladi **eine Million, -en; eine Milliarde, -n; eine Billion, -en:**

17 052 000 siebzehn Millionen zweiundfünfzigtausend.

SANOQ SONLARNING QO'LLANILISHI
(GEBRAUCH DER GRUNDZAHLWÖRTER)

<p>Eins soni noaniq artikl kabi turlanadi va urg'u oladi. (ein) so'ng qo'shimchasiz kasr sonlarda, shuningdek, Uhr otidan oldin qo'llanadi.</p>	<p>Hinter dem Sportplatz steht nur noch ein Haus. <i>Sport maydonchasi orqasida faqat bitta uy turibdi.</i> ein Viertel – to'rt dan bir. Es ist ein Uhr (Es ist eins). <i>Hozir soat bir.</i></p>
<p>Zwei va drei sanoq sonlari qaralgich kelishigi shakliga ega bo'lishi mumkin: zweier, dreier.</p>	<p>Das Gespräch zweier (dreier) Mädchen überraschte mich. <i>Ikkita (uchta) qizlarning suhbatini meni ajablantirdi.</i></p>
To'g'ri so'z tartibi – ega kesimning oldida turadi.

1-o'rin	2-o'rin					
Ega guruhi	Kesimning o'zgaradigan qismi		Dativda to'ldiruvchi	Akkusativda to'ldiruvchi		Kesimning o'zgar-maydigan qismi
Die Firma	liefert	heute	dem	die	nicht.	
Die Firma	lieferte	gestern	Kunden	Ware	nicht.	
Die Firma	liefert		dem	die	nicht.	
Die Firma	hat		Kunden	Ware	nicht	geliefert.

Teskari so'z tartibi – ega kesimdan keyin turadi.

1-o'rin	2-o'rin	3-o'rin				
Gapning ikkinchi darajali bo'lagi	Kesimning o'zgaradigan qismi	Ega guruhi	Dativda to'ldiruvchi	Akkusativda to'ldiruvchi		Kesimning o'zgar-maydigan qismi
Heute	haben	wir	dem	6 Stunden		
Heute	werden	wir	Kunden	6 Stunden		haben.
Wahrscheinlich	liefert	die Firma	dem	die Ware	nicht.	
Wahrscheinlich	hat	die Firma	Kunden	die Ware	nicht	geliefert.

AKKUSATIV VA DATIVDA OLMOSH BILAN IFODALANGAN TO'LDIRUVCHILARNING KETMA-KETLIGI

1	2	3	4
Der Lehrer	gibt	dem Schüler	das Buch.
Der Lehrer	gibt	es	dem Schüler.
Der Lehrer	gibt	ihm	das Buch.
Der Lehrer	gibt	es	ihm.

Dativdagi to'ldiruvchi Akkusativdagi to'ldiruvchining oldidan keladi.

Agar gapda bitta otmosh bo'lsa, kelishigidan qat'i nazar, u kesimning tushlangan qismidan keyin turadi.

Agar gapda ikkita otmosh kelsa, Akkusativdagi to'ldiruvchi Dativdagi to'ldiruvchidan oldin turadi.

INKOR DIE VERNEINUNG (NEGATION)

Nemis tilidagi gapda faqat bitta inkor ishlatilishi mumkin.

Ich habe **nie** etwas davon gehört. *Men bu haqda hech qachon hech narsa eshitmaganman.*

Ba'zi hollarda nemis tilidagi gaplarda inkor ishlatilmaydi, masalan:

– beinahe, fast (sal bo'lmasa...) va Konjunktivdagi fe'l ishlatilgan gaplarda:

Ich **wäre beinahe** ertrunken. *Men sal bo'lmasa cho'kib ketardim;*

– ergash gaplarda:

Wie kalt es auch war, er ging jeden Tag schwimmen. *Qanchalik sovuq bo'lmasin, u har kuni suzishga borardi.*

Nemis tilida inkorli savolga javob berilayotganda ma'nosidan kelib chiqqan holda ikki inkor (nein yoki doch)dan biri ishlatiladi. O'zbek tilida bunday vaziyatlarda har ikkala o'rinda ham «yo'q» ishlatiladi:

– Kannst du Auto fahren? – *Sen mashina haydashni bilmaysanmi?*

– Doch, ich kann. – *Yo'q, bilaman.*

– Nein, ich kann nicht. – *Yo'q, bilmayman.*

INKORNING IFODALANISHI (EINTEILUNG DER VERNEINUNG)


<p>nein yo'q gapdan tashqari turadi va so'zlar tartibiga ta'sir qilmaydi.</p>	<p>– Gehst du mit? – <i>Biz bilan ketasanmi?</i> – Nein, ich bleibe zu Hause. – <i>Yo'q, men uyda qolaman.</i></p>
<p>nicht -emas, -maydi, -madi, yo'q – agar nicht inkor yuklamasi kesimga aloqador bo'lsa, gapda oxirgi so'zga yaqin turadi; – agar kesim ikki fe'ldan iborat bo'lsa, unda nicht birinchidan keyin yoki ikkinchidan oldin turishi mumkin; – agar gapning bo'laklaridan biri (kesimdan tashqari) inkor etiladigan bo'lsa, unda nicht inkor so'zi o'sha bo'lakdan oldin qo'yiladi</p>	<p>Er kommt heute nicht. <i>U bugun kelmaydi.</i> Er ist heute nicht gekommen. <i>U bugun kelmadi.</i> Ich kann nicht heute zur Arbeit gehen. Ich kann heute zur Arbeit nicht gehen. <i>Men bugun ishga kelolmayman.</i> Sie ist nicht müde. <i>U charchamadi.</i> Nicht ich rief dich an. <i>Men emas senga qo'ng'iroq qilgan.</i></p>
<p>kein (kein, keine; keine) <i>hech qanday, hech qanaqa, hech bir</i> otlarni inkor etish uchun qo'llanadi. U har doim inkor etiladigan otdan oldin keladi.</p>	<p>In unserer Stadt gibt es kein Theater. <i>Bizning shaharda bironta ham teatr yo'q.</i> Wir haben kein teures Auto gekauft. <i>Biz uncha qimmat bo'lmagan mashina sotib oldik.</i></p>
<p>nichts <i>hech narsa</i> jonsiz tushunchalarga qarashli</p>	<p>Er hat heute nichts gekauft. <i>U bugun hech narsa sotib olmadi.</i> Sie konnte mir nichts Interessantes erzählen. <i>U menga qiziqarli hech narsa aytib berolmadi.</i></p>
<p>niemand <i>hech kim</i> jonli tushunchalarga qarashli</p>	<p>Niemand ist dort. <i>U yerda hech kim yo'q.</i></p>
<p>nie <i>hech qachon</i> gapda payt holi o'rnida qo'llanadi.</p>	<p>Ich habe so etwas nie versprochen. <i>Men hech qachon bunday va'da bermaganman.</i></p>
<p>nirgends <i>hech qayerda, hech joyda</i> gapda o'rin holi o'rnida qo'llanadi</p>	<p>Er ist nirgends zu finden. <i>Uni hech qayerdan topa olishmayapti.</i></p>
<p>weder...noch <i>na..., na ...</i></p>	<p>Weder ihn noch seine Frau konnte ich sprechen. <i>Na u bilan, na xotini bilan gaplasha oldim.</i></p>

nicht nur...sondern auch <i>nafaqat, balki</i>	Er war nicht nur arm, sondern er war auch krank und einsam. <i>U nafaqat kambag'al, balki betob va yolg'iz edi.</i>
---	--

QO'SHMA GAP (DER ZUSAMMENGESETZTE SATZ, KOMPLEXER SATZ)

Bir necha sodda gaplar o'zaro bir gapga biriksa, bunday gaplar qo'shma gap deyiladi. Qo'shma gapni tashkil qilgan sodda gaplarning aloqaga kirishishi turlicha bo'ladi. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar, odatda, o'zaro turlicha aloqaga kirishadilar. Sodda gap bilan qo'shma gap orasidagi farq, asosan, gapning strukturasi qarang o'rganiladi. Sodda gap bir predikativ markazdan iborat bo'lsa, qo'shma gap bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha predikativ markazga ega bo'ladi. Qo'shma gapni tashkil etuvchi komponentlar tashqi ko'rinishdan alohida-alohida (mustaqil) gaplardek tuyulsa-da, ular qo'shma gap doirasida o'zicha mustaqillikka ega bo'lmay, balki mazmun va intonatsion jihatdan bir butunlikni tashkil etadi. Agar mustaqil sodda gaplarda tugallangan intonatsiya bo'lsa, qo'shma gap tarkibidagi tabiiy sodda gaplarda bunday intonatsion tugallik yo'q: ular «to'liq bo'lmagan» intonatsiyaga ega bo'ladilar.

Qo'shma gap ikki turga bo'linadi:



BOG'LOVCHISIZ BOG'LANGAN QO'SHMA GAP (DIE KONJUNKTIONSLOSE SATZVERBINDUNG)

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar o'zaro bog'lovchisiz bog'lanib keladi.	Er studiert an der Universität, an einer Fachhochschule. <i>U universitetda, maxsus mutaxassis tayyorlaydigan oliy o'quv yurtida o'qiydi.</i> Leicht versprochen, leicht gebrochen (Sprichwort). <i>Va'da berish oson, bajarish qiyin (maqol).</i>
--	---

BOG'LOVCHILI BOG'LANGAN QO'SHMA GAP (DIE KONJUNKTIONALE SATZVERBINDUNG)

Gapning turi	Bog'lovchi	Misol
Bog'lovchlar (die Konjunktionen)	und, aber, oder, denn, sondern usw	Ich gehe nach Hause, denn es ist schon spät. <i>Men uyga ketyapman, chunki kech bo'lib qoldi.</i> Er macht die Hausaufgaben und sie liest ein Buch. <i>U (yigit) uy vazifalarini bajaryapti, u (ayol) esa kitob o'qimoqda.</i>
Bog'lovchi ravishlar (die Konjunktionen)	dann, sonst, darum, deshalb, deswegen usw	Zuerst erfülle ich die Arbeit, dann gehe ich ins Kino. <i>Avval men ishni bitkazaman, so'ngra kinoga boraman.</i> Du mußt lauter sprechen, sonst verstehe ich nichts. <i>Balandroq gapirishing kerak, aks holda men hech narsa tushunmayapman.</i> Er war krank, deswegen konnte er nicht kommen. <i>U kasal edi, shuning uchun kela olmadi.</i>
Ergashgan qo'shma gap (das Satzgefüge, die Hypotaxe)	wenn, weil, dass, ob, als, während, falls, damit usw.	Ich freue mich, dass du heute abends zu uns gekommen bist . <i>Bugun kechqurun biznikiga kelganingdan xursandman.</i>

BOG'LOVCHLAR (DIE KONJUNKTIONEN)

Teng bog'lovchilar (Nebenordnende Konjunktionen) Tehg bog'lovchilarga:	
1. Juft bog'lovchilar (Additive Konjunktionen): und, sowie, wie, sowohl... als, auch, sowohl... wie, wieder... noch	Früher spielten wir Fußball und Schach. <i>Ilgari biz futbol va shaxmat o'ynardik.</i> Ibrohim mag wieder Eis noch Schokolade. <i>Ibrohim na muzqaymoq, na shokolad xohlaydi.</i>

2. Ayiruv bog'lovchilar (Disjunktive Konjunktionen): oder, entweder... oder, beziehungsweise (bzw.)	Entweder nehme ich den Bus oder das Fahrrad. <i>Men yo avtobusda, yo velosipedda boraman.</i> Ich komme um drei bzw. nach der letzten Besprechung. <i>Men soat uchda, ya'ni (aniqrog'i) oxirgi muhokamadan keyn kelaman.</i>
3. Sabab bog'lovchi (Kausale Konjunktion): denn	Der Kauf des Hauses war ein Fehlgriff, denn es regnet durch das Dach. <i>Uy xato xarid qilindi, chunki tomdan yomg'ir o'tyapti.</i>
4. Zid bog'lovchilar (Restriktive und adversative Konjunktionen): aber, außer, doch, jedoch, sondern	Es ist Trübe, aber nicht regnerisch. <i>Loyqa, ammo yomg'ir yo'q.</i> Ich fahre mit dem Zug, außer ich verpasse ihn. <i>Men uni qo'ldan chiqarmasdan, poyezd bilan jo'nadim.</i> Wir wollten zusammen verreisen, doch Karim weigerte sich. <i>Biz sayohat qilmoqchi edik, ammo Karim rad qildi.</i>
5. Qiyosiy bog'lovchilar (Vergleichende Konjunktionen): wie, als	Salim rennt fast so schnell wie sein Bruder. Salim deyarli akasidek tez yugurdi. Heute ist schönes Wetter als gestern. <i>Bugun havo yaxshi, kechagiga qaraganda</i>

Ergashtiruvchi bog'lovchilar (Unterordnende Konjunktionen)
Ergashtiruvchi bog'lovchilarga:

1. Payt bog'lovchilar (temporale Konjunktionen): als, bevor, bis, ehe, nachdem, seit(dem)	Es war schon spät, als wir endlich nach Hause kamen. <i>Biz uyga kelganda allaqachon kech bo'lib qolgan edi.</i> Im Winter stehen wir immer auf, bevor es hell wird. <i>Qishda biz har doim tong otmasdan uyg'onamiz.</i>
2. Sabab bog'lovchilar (Kausale Konjunktionen): da, weil, zumal	Sie schließt das Fenster, weil es kühl wird. <i>Salqin bo'lganligi sababli u oynani yopti.</i>

	<p>Da es schon spät war, gingen wir nach Hause. Kech bo'lib qolganligi sababli biz uyga qaytdik.</p>
3. Shart bog'lovchilar (Konditionale Konjunktion): wenn, falls, sofern, soweit	<p>Falls ich mich verspäten sollte, fangt bitte schon ohne mich an! Agar kechiksam, mensiz boshlay- vering!</p>
4. To'siqsiz bog'lovchilar (Konzessive Konjunktion): obgleich, obschon, obwohl	<p>Wir waren pünktlich, obwohl wir uns verlaufen hatten. <i>Biz adashib qolishimizga qaramas- dan, o'z vaqtida yetib bordik.</i></p>
5. Ergashtiruvch bog'lovchilar (Konsekutive Konjunktion): so-dass/ so dass, als dass, dass	<p>Sie sprangen alle ins Wasser, so-dass es hoch aufspritzte. <i>Eng yuqoriga ko'tarilgandagina ular suvga sakrashdi.</i></p>
6. Maqsad bog'lovchilar (Finale Konjunktionen): dass, damit	<p>Er hebt die Bananenschale auf, da-mit niemand ausrutscht. <i>Hech kim toyib ketmasligi uchun, u banan po'chog'ini yerdan olib qo'ydi.</i></p>
7. Modal bog'lovchilar (Modale Konjunktionen): indem, da-durch, dass	<p>Er stimmt der Vorschlag zu, indem er mit dem Kopf nickt. <i>U taklifga rozi bo'ldi, negaki u bos-hini qimirlatdi.</i></p>
8. Zidlov bog'lovchilar (Restriktive Konjunktionen): soviel, soweit, außer dass	<p>Soweit ich weiß, war er letzte Woche krank. <i>Men bilamanki, u oxirgi hafta kasal edi.</i></p>
9. Qiyosiy bog'lovchilar (Komparative Konjunktionen): als, als ob, je... desto	<p>Sie macht ein Eindruck, als ob sie nicht zuhöre. <i>U diqqat bilan eshitmasdan tasavvurga ega bo'ldi.</i></p>
10. Zidlov bog'lovchilar (Adversative Konjunktionen): während, wohingegen	<p>Luiza möchte Deutsch Lehrerin werden, während Zarifa Wirtschaft studieren will. <i>Zarifa iqtisodiyotda o'qimoqchi bo'l-ganda, Luiza nemis tili o'qituvchisi bo'lishni xohladi.</i></p>
11. O'rin bog'lovchilar (Substitutive Konjunktionen): anstatt dass, statt dass	<p>Stark erkältet ging er zur Arbeit, an-statt dass er im Bett blieb. U yotish o'rniga shamollagan holda ishga ketdi.</p>

ERGASHGAN QO'SHMA GAP (DER SATZGEFÜGE, DIE HYPOTAXE)

Ergash gapli qo'shma gap bir bosh gapdan va unga ergashib kelgan bir yoki bir nechta ergash gaplardan tashkil topadi. Bosh gap grammatik jihatdan mustaqil, ergash gap esa bosh gapga tobe bo'lib keladi.

<p>Ega ergash gap (Der Subjektsatz)</p>		<p>Ega ergash gap bosh gapdagi ega vazifasidagi so'zning ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi va <i>wer?</i> (<i>kim?</i>), <i>was?</i> (<i>nima?</i>) so'roqlariga javob bo'ladi.</p> <p>Ega ergash gaplar bosh gapga nisbatan o'rniga ko'ra undan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Ega ergash gap bosh gapga bog'lanish usuliga ko'ra bog'lovchili va bog'lovchisiz bo'ladi. Bog'lovchili qo'shma gaplarda ega ergash gap bosh gapga:</p> <p>a) bog'lovchilar; b) nisbiy olmoshlar; c) nisbiy ravishlar yordamida birikib keladi.</p> <p style="text-align: center;"><u>Subjektsatz</u></p> <p>dass Dass er nicht kommt, beunruhigt seine Mutter. (→Es beunruhigt sie) U kelmayotganligidan onasining tinchi buzilyapti.</p> <p style="text-align: center;"><u>Subjektsatz</u></p> <p>ob Ob er kommt, ist ungewiss. (→Das ist ungewiss) <i>Uning kelishi noma'lum.</i></p> <p style="text-align: center;"><u>Subjektsatz</u></p> <p>wer Wer nicht fragt, bleibt dumm. (→Der bleibt dumm) <i>Kim so'ramasa nodon bo'lib qolaveradi.</i></p>
<p>Kesim ergash gap (Der Prädikativsatz)</p>		<p>Kesim ergash gap bosh gapning ot kesimi bo'lib, <i>wer ist das Subjekt?</i> (<i>ega kim?</i>), <i>Was ist das Subjekt?</i> (<i>ega nima?</i>), <i>wie ist das Subjekt?</i> (<i>ega qanday?</i>) so'roqlariga javob beradi.</p>

	<p>Kesim ergash gaplar bosh gapga quyidagi bog'lovchilar orqali bog'lanadi:</p> <p>Kesim ergash gap bosh gapga bog'lanish usuliga ko'ra bog'lovchili yoki bog'lovchisiz bo'ladi. Bog'lovchili kesim ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishi ikki xil:</p> <p>1. daß, ob, als ob, wie als, wenn, als wenn kabi bog'lovchilar bilan:</p> <p>Wir begriffen, dass wir in eine Unbekannte Straße geraten waren.</p> <p><i>Biz tushundikki, biz noma'lum ko'chaga kirib qolgandik.</i></p> <p>2. der, die, das, wer, was, wofür, welcher kabi nisbiy oimoshlar va oimosh ravishlar bilan. Bosh gap tarkibida der, es, das kabi oimoshlar kelsa, ular korreilat sifatida qo'llanadi:</p> <p>Wer schnell ißt, der arbeitet tüchtig.</p> <p>Kim tez yesa, u yaxshi ishlaydi.</p> <p>Kesim ergash gap kam qo'llanadi.</p>
--	---

<p>To'ldiruvchi ergash gap (Der Objekt-satz)</p>	<p>To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga nisbatan to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.</p> <p>U <i>wen?</i> (<i>kimni?</i>), <i>was?</i> (<i>nimani?</i>), <i>wem?</i> (<i>kimga, nimaga?</i>), <i>womit?</i> (<i>nima bilan?</i>), <i>wofür?</i> (<i>nima uchun?</i>), <i>worüber?</i> (<i>nima to'g'risida?</i>), <i>wessen</i> (<i>nimaning? kimning?</i>), <i>wovon</i> (<i>nima to'g'risida?</i>) kabi so'roqlarga javob bo'ladi. To'ldiruvchi ergash gap ham o'zlashtirma gapda, ham ko'chirma gapda ishlatiladi. To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapga nisbatan o'rniga ko'ra, asosan, bosh gapdan keyin keladi. Lekin ba'zi hollarda bosh gapdan oldin kelishi ham mumkin:</p> <p>Die Deutschen lieben das Auto BMW so sehr, dass sie nicht darauf verzichten können.</p> <p>(was lieben die Deutschen?)</p> <p><i>Nemislar BMW mashinasini shunchalik yoqtiradilarki, ular bundan tona olmaydilar.</i></p> <p>Der Vater wartet darauf, dass der Sohn die</p>
---	---

	<p>Prüfung besteht. (worauf wartet der Vater?) <i>Ota o'g'lining qanday imtihon topshirganligini kutmoqda.</i> Dass du mir allein die Schuld an dem Unfall gibst, ist unfair von dir.</p>
	<p>daß</p> <p>Bosh gapda so'zlashish (aytmoq, gapirib bermoq, ma'lum qilmoq va fikrlash, o'ylamoq, ishonmoq, fikr yuritmoq) yoki his etish (eshitmoq, ko'rmoq, sezmoq) kabi tushunchalarni ifodalovchi fe'llar kelganda qo'llanadi:</p> <p>Man sagt, daß er jetzt auf dem Lande lebt. <i>Aytadilarki, u hozir qishloqda yashaydi.</i> Es freut mich sehr, dass ich dich getroffen habe. (Goethe) Men seni uchratganimdan xursandman</p> <p>ob</p> <p>Bosh gapda so'rash ma'nosiga ega bo'lgan fe'llar (so'ramoq, qiziqmoq va boshqalar) kelganda qo'llanadi: Er fragte, ob sie schon da seien. <i>U so'radiki, ular allaqachon shu yerda.</i> Ich weiß nicht, ob die Zeit günstig gewählt ist. <i>Men bilmayman vaqt qulay tanlanganligini.</i></p> <p>Ba'zan bosh gap tarkibida ko'rsatish olmoshlaridan das, es, der, derjenige, was, dafür, darauf, damit, danach, davon, darüber kabi olmosh ravishlar korrelat sifatida qo'llanadi.</p> <p>Das ist der beste Beweis dafür, dass ich Recht habe. <i>Mening haqligimga bu eng yaxshi dalil.</i></p> <p>wer, was, der (die, das), welcher, (welche, welches), ko'plikda die, welche kabi nisbiy olmoshlar bilan: Wer seid ihr denn, daß ihr des Hauses Schaffnerin. («Faust» Goethe. 1969. S.388) <i>Kimsizki, kalitdorga o'shqurursiz bunchalar.</i> (E.Vohidov tarj. 1985. B.261)</p>

	<p>wäh-rend vaqtida, paytida, -da</p>	<p>Während ich in Berlin studierte, ging ich oft ins Theater. <i>Berlinda o'qib yurgan vaqtimda men tez-tez teatrqa borib turardim.</i></p> <p>Bosh gap bilan ergash gapda bir paytning o'zida sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalashda qo'llanadi. Ularda doim bir xil zamon shakllari turadi. Störe mich bitte nicht, solange ich telefoniere. <i>Telefonda gaplashayotganimda, iltimos, menga xalaqit berma.</i></p> <p>Bosh gapdan anglashilgan ish-harakatdan keyin sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalovchi ergash gaplarni kiritadi. Biroq bosh gapda va ergash gapda bir xil zamon shakli qo'llanadi. Bevor ich gehe, zahle ich. <i>Ketishdan oldin men hisob-kitob qilaman.</i> Sie bringt das Kind in den Kindergarten, ehe sie zur Arbeit geht. <i>Ishga ketishdan oldin u bolasini bog'chaga olib boradi.</i></p>				
	<p>nach-dem ...dan keyin,dan so'ng</p>	<p>Nachdem bog'lovchisi ish-harakatning ketma-ket, birin-ketin sodir bo'lishini ifodalash uchun qo'llanadi. Ketma-ketlik o'tgan zamonga taalluqli bo'lsa, unda ergash gapda Plusquamperfekt, bosh gapda Präteritum qo'llanadi. Ketma-ketlik hozirgi zamonga tegishli bo'lsa, ergash gapda Perfekt, bosh gapda esa Präsens qo'llanadi:</p>				
		<table border="1"> <tr> <td data-bbox="360 1457 560 1348">Ergash gap</td> <td data-bbox="560 1457 906 1348">Bosh gap</td> </tr> <tr> <td data-bbox="360 1348 560 1457">Perfekt Plusquamperfekt</td> <td data-bbox="560 1348 906 1457">Präsens Präteritum</td> </tr> </table>	Ergash gap	Bosh gap	Perfekt Plusquamperfekt	Präsens Präteritum
Ergash gap	Bosh gap					
Perfekt Plusquamperfekt	Präsens Präteritum					

		<p>Nachdem er gefrühstückt hat, beginnt er zu arbeiten. <i>Nonushta qilib olgandan so'ng u ishlay boshlar</i></p> <p>Nachdem er gefrühstückt hatte, begann er zu arbeiten. <i>Nonushta qilib olgandan so'ng u ishga tushib ketdi.</i></p>
	<p>Sobald <i>bilanoq, zahoti, zamon</i></p> <p>bis <i>-guncha, -gacha, to</i></p> <p>seit <i>-dan beri, dan buyon</i></p>	<p>Bosh gapning ish-harakatidan oldin sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Agar ikkala ish-harakat o'tgan zamonda sodir bo'lgan bo'lsa, unda Pluskuamperfekt va Präteritum qo'llanadi.</p> <p>Sobald du bereit bist, fangen wir an. <i>Sen tayyor bo'lgan zahoti, biz boshlaymiz.</i> Ish-harakat bir vaqtda ham bo'lishi mumkin: Alles schwieg, sobald er kam. <i>U kirgan zahoti, hamma jim bo'ldi.</i></p> <p>Yaqinda bo'ladigan ish-harakatni ifodalash uchun qo'llanadi. Bosh gapdagi ish-harakat ma'lum bir vaqtda tugaydi va xuddi shu vaqtdan ergash gapdagi ish-harakat boshlanadi. Warten Sie bitte auf mich, bis ich zurück bin. <i>Ittimos, men kelgunimcha kutib turing.</i></p> <p>O'tgan zamonda boshlangan va hozirga qadar davom etgan ish-harakatning baravar davom etganini ifodalaydi. Bosh va ergash gapdagi fe'l zamonlari o'zaro mos bo'ladi.</p> <p>Seit ich wieder Sport treibe, gehtes mir besser. <i>Sport bilan yana shug'ullanganimdan buyon o'zimni yaxshiroq his qilyapman.</i></p>
<p>Sabab ergash gap (der Kausal-satz)</p>		<p>Sabab ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapdagi ish-harakatning sababini ifodalaydi. Sabab ergash gaplar bosh gap bilan weil va da bog'lovchilari orqali bog'lanib keladi.</p>

	<p>weil <i>chunki, negaki</i></p> <p>da <i>uchun</i></p> <p>zumal <i>ayniqsa, buning ustiga</i></p>	<p>weil bog'lovchisi bilan kelgan gaplar eshituvchiga ilgari ma'lum bo'lmagan ish-harakatning sababini aytadi. Wir mußten während des Fußballspieles stehen, weil alle Sitzplätze besetzt waren. <i>Futbol o'yini paytida tik turishimizga to'g'ri keldi, chunki hamma joylar band edi.</i></p> <p>da bog'lovchisi bilan kelgan gaplar ma'lum bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Da er krank war, konnte er nicht kommen. <i>U kasal bo'lgani uchun kelolmadi.</i></p> <p>zumal bog'lovchisi ergash gaplar qo'shimcha jiddiy sababni ifodalaydi. Seine Enttäuschung war verständlich, zumal er viel erwartet hatte. <i>Uning ko'ngli qolishi tushunarli edi, buning ustiga, u ko'p narsani kutgandi.</i></p>
<p>Shart ergash gap (der Konditional-satz, der Bedingunssatz)</p>	<p>wenn <i>agar</i></p> <p>Falls <i>agar (mabodo, bordi-yu) ...bo'lsa</i></p>	<p>Shart ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapda amalga oshishi mumkin bo'lgan ish-harakatning shart-sharoitlarini ifodalaydi.</p> <p>Wenn ich das Stipendium bekomme, kaufe ich ein Fahrrad. <i>Agar stipendiya olsam, velosiped sotib olaman.</i></p> <p>Shart ergash gapli qo'shma gaplar wenn bog'lovchisiz ham qo'llanishi mumkin. Bunda kesimning tuslanadigan qismi gapda birinchi bo'lib keladi. Hilfst du mir, so helfe ich dir. <i>Agar menga yordam bersang, men ham senga yordam beraman.</i></p> <p>Falls du dich morgen nicht wohl fühlst, bleib bitte zu Hause. <i>Agar ertaga o'zingni yomon his qilsang, u holda, iltimos, uyda qolgin.</i></p> <p>Falls, shuningdek, tushib qolishi ham mumkin, shunda kesimning tuslanadigan qismi birinchi o'ringa o'tadi.</p>

		<p>Fühlst du dich morgen nicht wohl, bleib bitte zu Hause.</p> <p><i>Agar ertaga o'zingni yomon his qilsang, iltimos, uyda qolgin.</i></p>
<p>Natija ergash gap (der Konsektivsatz, der Folgesatz)</p>	<p>so daß</p>	<p>Natija ergash gapli qo'shma gap bosh gapda sodir bo'lgan ish-harakatning natijasini bildiradi, shuning uchun u doim bosh gapdan keyin keladi.</p> <p>Sein Bart wächst so, daß er sich zweimal am Tag rasieren muß.</p> <p><i>Uning soqoli shu qadar tez o'sadiki, bir kunda ikki marta soqol olishga majbur.</i></p> <p>Der Kranke hatte solche Schmerzen, daß er laut stöhnte.</p> <p><i>Bemorda shunday og'riqlar bo'lganki, u qattiq ingradi.</i></p>
<p>To'siqsiz ergash gap (der Konzessivsatz, der Einräumungssatz)</p>	<p>obwohl obgleich ob-schon -sa ham</p> <p>auch wenn selbst wenn wenn... auch</p> <p><i>hatto ... bo'lgan taqdirda ham</i></p>	<p>Quyidagi bog'lovchilar bir xil ma'noda qo'llanadi.</p> <p>Ular ergash gapning ish-harakatini bosh gapnikiga nisbatan qarama-qarshi qo'yish yoki uning bosh gapning ish-harakatiga nisbatan cheklanganligini ifodalash uchun ishlatiladi.</p> <p>Obwohl wir uns ständig streiten, sind wir doch gute Freunde.</p> <p><i>Ko'p bahslashsak ham, bari bir, yaxshi do'st bo'lib qolaveramiz.</i></p> <p>Bu ergash gaplar shart-to'siqsizlik ma'no-larini ifodalaydi, ularda ko'proq konyuktiv qo'llanadi, ammo indikativ ham ishlatilishi mumkin.</p> <p>Ich tue es, auch wenn es mir sehr schwer fällt,</p> <p><i>Men buni qilaman, hatto bu menga qiyin bo'lgan taqdirda ham.</i></p> <p>Sie redet über die Sachen, auch wenn sie keine Ahnung davon hat.</p> <p><i>U narsalar to'g'risida, hatto ular haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan taqdirda ham, gapiradi.</i></p>

<p>Qiyosiy ergash gap (der Komparativsatz, der Adverbialsatz des Vergleichs)</p>	<p>wie <i>xuddi, -dek</i></p> <p>als <i>ko'ra</i></p> <p>je...desto <i>qancha ... shuncha</i></p>	<p>Ikkita teng tushunchalarni qiyoslaganda wie bog'lovchisi qo'llanadi. Bosh gapda so turi-shi mumkin. Er ist so reich, wie ich vermutet habe. <i>Xuddi taxmin qilganimdek, u badavlat ekan.</i></p> <p>Ikkita teng bo'lmagan, turli xil tushunchalarni qiyoslaganda als qo'llanadi, bosh gapda u nisbiy ravishlar bilan bog'lanadi. Er ist noch reicher, als ich erwartet habe. <i>U men taxmin qilgandan ko'ra badavlatroq ekan.</i></p> <p>Je schlechter die Wirtschaftslage ist, desto schneller steigen die Preise. <i>Iqtisodiy sharoit qanchalik yomon bo'lsa, narx-navo shuncha tez o'sib boradi.</i></p>
<p>Nisbiy ergash gap (der Relativsatz)</p>	<p>der (die, das)</p> <p>dass, wann, wo, wohin, wie</p>	<p>Nisbiy ergash gap deb otga aloqador bo'lgan va uni biror jihatdan aniqlashtirgan gapga aytiladi. Bunday gap bevosita o'zi aloqador bo'lgan otdan keyin keladi. Nisbiy olmosh aniqlashtirilayotgan so'z bilan rod, son va kelishikda moslashadi.</p> <p>Die Jungen, die an der Spartakiade teilnehmen, fahren nach Berlin. <i>Spartakiadada ishtirok etayotgan bolalar Berlinga ketishyapti.</i></p> <p>Der Film, der uns gezeigt wurde, ist weltberühmt. <i>Bizga namoyish etilgan film butun dunyoga mashhur.</i></p> <p>Die Touristen, mit denen wir eben gesprochen haben sind aus Deutschland. <i>Hozirgina biz bilan gaplashgan turistlar Germaniyadan bo'lishadi.</i></p> <p>Der Junge, dessen Mutter Deutschlehrerin ist, spricht deutsch sehr gut. <i>Nemis tili o'qituvchisining o'g'li nemis tilida juda yaxshi gapiradi.</i></p>

	was	<p>Ich habe keine Ahnung, wohin wir gehen werden.</p> <p><i>Hozir qayerga boramiz, umuman tasavvur qila olmayman.</i></p> <p>Das Haus, wo du jetzt wohnst, wurde vor kurzem gebaut.</p> <p><i>Sen hozir yashayotgan uy yaqindagina qurilgan edi.</i></p> <p>Alles, was du mir erzählt hast, habe ich schon gehört.</p> <p><i>Menga aytib berganlaringning hammasini allaqachon eshitgan edim.</i></p> <p>Er kann sich nicht mehr daran erinnern, was er alles erlebt hat.</p> <p><i>U boshidan o'tganlarini boshqa eslashni istamaydi.</i></p>
Maqsad ergash gap (der Finalsatz, der Adverbialsatz des Zieles)	damit <i>uchun, deb, deya</i>	<p>Maqsad ergash gaplar bosh gapga nisbatan maqsad holi funksiyasini bajaradi. Maqsad ergash gaplar bosh gap bilan damit bog'lovchisi orqali bog'lanadi va ko'pincha undan keyin turadi.</p> <p>Ich will ihm diese Bücher schicken, damit er sie liest.</p> <p><i>Men bu kitoblarni o'qib chiqishi uchun unga jo'natmoqchiman.</i></p>
	um...zu	<p>Agar bosh va ergash gapning egasi bir xil bo'lsa, maqsad ergash gap o'rniga um...zu + Infinitiv guruhi qo'llanadi.</p> <p>Wir müssen uns ein bißchen beeilen, um rechtzeitig da zu sein.</p> <p>U yerga vaqtida kelishimiz uchun biroz shoshilishimiz kerak.</p>
Infinitivli guruhlar (die Infinitivgruppen)	um...zu	<p>Quyidagi Infinitiv guruhlari o'z egasiga ega emas. Ular bosh gapda ega vazifasini bajarib kelgan shaxs yoki predmetni ifodalaydi. Ushbu Infinitiv guruhlar ham bosh gapning oldida hamda bosh gapdan keyin kelishi mumkin.</p>

	ohne... zu	<p>um...zu bilan kelgan Infinitiv guruhi maqsadni, niyatni, xohishni bildiradi. Ich gehe ins Geschäft, um Brot zu kaufen. <i>Men non olish uchun do'konga ketyapman.</i></p> <p>ohne...zu bilan kelgan Infinitiv guruhi kutilayotgan ish-harakat sodir bo'lmayotganligi yoki sodir bo'lmaganligini ifodalaydi.</p>
	(an) statt... zu	<p>Er ging einfach weg, ohne meine Frage zu beantworten. <i>U savolga javob bermay, shunchaki ketib qoldi.</i></p> <p>anstatt...zu bilan kelgan Infinitiv guruhi bir kimsaning odatdan tashqari harakat qilayotganligini bildiradi. Er rief mich an, statt sofort zu kommen. <i>Darhol kelish o'miga u menga qo'ng'iroq qildi.</i></p> <p>Agar bosh va ergash gapning egasi boshqa-boshqa bo'lsa, unda damit, ohne dass yoki anstatt dass bog'lovchili ergash gaplar qo'llanadi.</p>
Ergash gap vazifasidagi so'roq gaplar		<p>Niemand weiß, ob wir sie jemals wiedersehen. <i>Uni qachon bo'lsa ham ko'ramizmi-yo'qmi, hech kim bilmaydi.</i></p> <p>, wann sie weggegangen ist? <i>u qachon ketdi?</i></p> <p>, warum sie gehen muß? <i>nega u borishi kerak?</i></p> <p>, wie es ihr geht? <i>uning ishlari qanday?</i></p> <p>, wo sie jetzt ist? <i>u hozir qayerda?</i></p> <p>, wer ihr geholfen hat? <i>kim unga yordam berdi?</i></p> <p>, wen sie kennt? <i>u kimni biladi?</i></p> <p>, worauf sie wartet? <i>u nimasiga ishonadi?</i></p> <p>, womit sie sich beschäftigt? <i>u nima bilan shug'ullanadi?</i></p>

	<p>Agar so'roq gap ergash gap o'rnida kelsa, u bosh gapga bog'lovchi so'z yordamida bog'lanadi.</p> <p>So'roq so'zlarsiz kelgan savollar ob bog'lovchisi yordamida kiritiladi. So'roq so'zli so'roq gaplar esa bosh gapga munosib so'roq so'z yoki predlogli so'z birikmasi yordamida bog'lanadi.</p>
--	---


SO'ROQ SO'ZLAR (DIE FRAGEWÖRTER)

wer?	kim?
was?	nima?
wem?	kimga? nimaga?
wen?	kimni?
wann?	qachon?
seit wann?	qaysi vaqtdan beri? qachondan beri?
bis wann?	qaysi vaqtgacha? qachongacha?
wie?	qanday qilib?
wie lange?	qancha vaqt?
wo?	qayerda?
wohin?	qayerga?
woher?	qayerdan?
wozu?	nimaga?
zu welchem Zweck?	nima maqsadda?
warum?	nima uchun?
weswegen?	nima sababdan?
auf welche Weise?	qanday qilib?
welcher?	qaysi?
wessen?	kimniki? kimning? kimga qarashli?
wievief?	qancha?

RANGLAR (DIE FARBEN)

weiß – oq	grau - kulrang, bo'z; ko'kimtir
schwarz – qora	rosa – atirgulga oid; atirgulrang
rot – qizil, alvon, qirmizi	braun – jigarrang, dolchinrang, qoramtir, qo'ng'ir
gelb – sariq, sariq rang; malla; zahil	lila – binafsharang, nafarmon
grün – yashil, barg rang, sabza	violett – gunafsharang, siyohrang
blau – havorang, zangori, moviy	orange – to'q sariq, apelsinrang, ko'k

DUNYO TOMONLARI (DIE WELTTEILE)



im Norden – shimolda
 nördlich von ... – shimolroq
 südlich von... – janubroq
 westlich von... – sharqroq
 östlich von... – g'arb roq

YIL FASLLARI VA OYLAR (DIE JAHRESZEITEN)

der **Winter** qish
 der Dezember
 der Januar
 der Februar

der **Frühling** bahor
 der März
 der April
 der Mai der

der Sommer *yoʻz*
 der Juni
 der Juli
 der August

der Herbst *kuz*
 der September
 der Oktober
 der November

HAFTA KUNLARI (DIE WOCHENTAGE)

der Montag	<i>dushanba</i>	am Montag	<i>dushanbada</i>
der Dienstag	<i>seshanba</i>	am Dienstag	<i>seshanbada</i>
der Mittwoch	<i>chorshanba</i>	am Mittwoch	<i>chorshanbada</i>
der Donnerstag	<i>payshanba</i>	am Donnerstag	<i>payshanbada</i>
der Freitag	<i>juma</i>	am Freitag	<i>jumada</i>
der Samstag	<i>shanba</i>	am Samstag	<i>shanbada</i>
der Sonntag	<i>yakshanba</i>	am Sonntag	<i>yakshanbada</i>

vorgestern	gestern	heute	morgen	übermorgen
<i>oʻtgan kuni</i>	<i>kecha</i>	<i>bugun</i>	<i>erta</i>	<i>indin</i>

KECHA-KUNDUZ QISMLARI (DIE TEILE DES TAGES UND DER NACHT)

der Morgen	am Morgen	morgens
der Vormittag	am Vormittag	vormittags
der Mittag	am Mittag	mittags
der Nachmittag	am Nachmittag	nachmittags
der Abend	am Abend	abends
die Nacht	in der Nacht	nachts

«Morgen»	≈	5.00 – 9.00 Uhr
«Vormittag»	≈	9.00 – 12.00 Uhr
«Mittag»	≈	12.00 – 14.00 Uhr
«Nachmittag»	≈	14.00 – 18.00 Uhr
«Abend»	≈	18.00 – 22.00 Uhr
«Nacht»	≈	22.00 – 5.00 Uhr

**O'ZBEKCHA – NEMISCHA GRAMMATIK TERMINLAR LUG'ATI
(USBKISCH – DEUTSCHES WÖRTERBUCH
GRAMMATISCHER TERMINI)**

Ablaut – Ablaut (m, -es, -e)	Nemis tilida fe'l o'zgidagi unlining o'zgarishi: (i – a – u) Ablaut kuchli fe'llardan Präteritum va Partizip II ni yasash uchun xizmat qiladi: <i>sprechen – sprach – gesprochen, singen – sang – gesungen</i>
Abstrakt ot – abstraktes Nomen (n, -s, -/Nomina) (lat.), Substantiv (n, -s, -e) (lat.), Hauptwort (n, -s, -wörter)	Mavhum tushunchani, abstrakt belgini predmet sifatida anglatadigan ot.
Ajratilgan bo'lak – abgeordnetes Satzglied (n, -s, -glieder)	O'zi aloqador bo'lgan so'zning ma'nosini izohlab, bo'rttirib keladi. U gapning boshqa bo'laklaridan pauza, intonatsiya bilan ajraladi.
Analitik forma – analytische Form (f =, -en)	Yordamchi so'zlar vositasida yasaluvchi forma. Analitik formalarga <i>ko'makchi fe'llar (haben, sein, werden)</i> va <i>artikllar</i> kiradi.
Aniqlik mayli – Indikativ (m, -s, -e) (lat.)	Harakatning o'tgan, hozirgi yoki kelgusida bajarilish-bajarilmasligini bildiruvchi fe'l formasi. Aniqlik mayli (<i>indikativ</i>)dagi fe'l da harakatning nutq momentiga munosabati bevosita ifodalanadi.
Aniqllovchi – Attribut (n, -(e)s, -e)	Gapning predmet belgisini attributiv yo'l bilan bildiruvchi ikkinchi darajali bo'lagi <i>wessen? (kimning? nimaning?), welcher?, was für ein? (qaysi?), wieviel? (qancha)</i> so'roqlariga javob bo'ladi.
Aniqllovchi ergash gap – Attributsatz (m, -es, Attributsätze)	Bosh gapdagi ot, otlashgan so'z, olmosh, son kabi so'zlar bilan ifodalangan bosh yoki ikkinchi darajali bo'lakning belgi-xususiyatini aniqlab, izohlab kelib, bosh gapga nisbatan aniqllovchi funksiyasini bajaradi va <i>welcher? (welche, welches?), was für ein? (was für eine?, was für ein?) (qanday? qanaqa?)</i> kabi so'roqlarga javob bo'ladi.
Aniq nisbat – Aktiv (n, -s)	Harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini, to'ldiruvchi esa harakatning obyektini ekanini bildiruvchi fe'l formasi.

Aniq o'tgan zamon – Präteritum (n, -s, -ta), Imperfekt (n, -s, -e)	Harakatning nutq momentigacha bajarilganini aniq qat'iy tarzda ifodalovchi fe'l formasi. Präteritumdagi fe'l o'tgan zamonda ro'y bergan ish-harakatni ifodalaydi. Präteritum ertak va hikoyalarda, shuningdek, turli taassurot va tavsiflarni ifodalashda qo'llanadi.
Artikl– Artikel (m, -s, =) Geschlechtswort(n -(e)s, ..wörter)	Nemis tilida otlar oldidan, odatda, maxsus so'z – artikl qo'llanadi. Artikllar ikkiga bo'linadi: aniq artikl va noaniq artikl. Aniq artiklga der, die, das kiradi. Ko'plikda die har uchala rod uchun qo'llanadi. Noaniq artikllar – ein, eine, ein . Noaniq artikllar ko'plik shakliga ega emas.
Asliy sifat – qualitatives Adjektiv (n, -s, -e)	Predmet belgisini bevosita ifodalaydigan, belgini darajalab ko'rsata oladigan sifat.
Atoqli ot – Eigenname (m, -ns, -n)	Shaxs, predmet, hodisalarning maxsus atamasi.
Attributiv aloqa – attributive Verbindung (f, -en)	Predmet, protsess kabilarning o'zini aniqlovchilik yo'li bilan bildiruvchi so'zlarning sintaktik aloqasi.
Affiks – Affix (n, -es, -e) (lat.)	So'z yasovchi yoki so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha. Prefiks va suffikslar, odatda, affiks deb yuritiladi. So'zning o'zagi oldida keladigan morfemalar prefiks (oldqo'shimcha), o'zakdan keyin qo'llanadigan morfemalar suffiks deyiladi.
Birgalik olmoshi – Reziprokpronomen (das, -s, -/ -mina) (lat.)	Birgalik olmoshlariga einander olmoshi hamda uning beieinander, miteinander, zueinander, füreinander va boshqa old ko'makchilar bilan birikkan shakllari kiradi. Ular ish-harakatning o'zaro xarakterini ifodalaydi. <i>Er hat seine Gedanken nicht beieinander.</i> <i>Sie sorgen füreinander.</i>
Biriktiruv bog'lovchisi – kopulative oder anreihende Konjunktion (f, -en)	Gapning uyushiq bo'laklarini, shuningdek, qo'shma gap sostavidagi ayrim gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiluvchi und, auch kabi bog'lovchilar.
Bir sostavli gap – eingliedriger Satz (m, -es, Sätze)	Faqat ega yoki kesim sostavidangina iborat bo'lgan gap.
Bitishuv – Anschließung (f, -en)	Komponentlarning o'zaro intonatsiya yoki tartib orqali birikishi bitishuv deyiladi.

Bosh bo'laklar – die Hauptglieder	Gapning ega va kesimi bosh bo'laklardir.
Bosh gap – Hauptsatz (m, -es, Sätze)	Tobe bo'lmagan, ergash gap tomonidan o'zi yoki biror bo'lagi aniqlanadigan, qo'shma gap tarkibida izohlanadigan gap.
Bosh kelishik – Nominativ (m, -s, -e) (lat.), Werfall (m, -s, -fälle)	Maxsus kelishik ko'rsatkichiga ega bo'lmagan o'ning formasi: der Wald, die Stadt.
Boshqaruv – Rektion (f, -en)	Sintaktik aloqaning bir turi bo'lib, bunda tobe so'z hokim so'zning talabi bilan ma'lum kelishik forma-ga kiradi. Bosqaruvda hokim so'z boshqaruvchi, tobe so'z esa boshqariluvchi sanaladi.
Bog'lama – Kopula (f, -, -s/-lae) (lat.)	Fe'lga xos ma'no va vazifada qo'llanishiga imkon yaratuvchi yordamchi fe'l bo'lib, fe'l bo'lmagan so'z bilan qo'llanadi.
Bog'langan qo'shma gap – Satzreihe, (f, -, -n), Satzverbindung (f, -, -en)	Grammatik jihatdan bir-biriga tobe bo'lmagan, mazmuniga ko'ra bir-biri bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq gaplardan tuzilgan gap.
Bog'lovchi – Konjunktion (f =, -en), Bindewort (n- (e)s, ..wörter)	Gap yoki gap bo'laklarini bog'lash xarakterini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'z. Bog'lovchilar ham predloglar kabi gap bo'lagi vazifasida kelolmaydi.
Bog'lovchili bog'langan qo'shma gap – konjunktionale Satzverbindung (f, -, -en)	Komponentlari o'zaro bog'lovchilar yordamida birikkan qo'shma gap.
Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap – konjunktionlose Satzverbindung (f, -, -en)	Komponentlari o'zaro bog'lovchisiz birikkan qo'shma gap.
Buyruq gap – Aufforderungssatz (m, -es, Sätze)	Buyurish, istak va iltimosni ifoda etish, maslahat berish mazmuniga ega bo'lgan gap. Bu gaplarda, asosan, buyruq mayli qo'llanadi.
Buyruq mayli – Imperativ (m, -s, -e)	Fe'lning iltimos, talab qilish, chaqirig'i kabi ma'nolarni ifodalovchi formasi. Masalan: <i>komm(e)!</i> <i>fahr(e)!</i> <i>wirf!</i> <i>vergib!</i> <i>ruf(e)!</i> <i>lies!</i> <i>laß!</i> <i>sei!</i>

Bo'lishli fe'l – bejahende Form (f=, -en)	Harakat tasdig'ini bildiruvchi fe'l formasi: <i>Der Student antwortet.</i>
Bo'lishsiz forma verneinende Form (f=, -en)	Harakatning inkorini ifodalovchi fe'l formasi: <i>Der Student antwortet nicht.</i>
Darak gap – Aussagesatz (m, -es, Sätze)	Ma'lum narsa, hodisa to'g'risidagi xabarni tasdiqlash yoki uni inkor etishni ifodalovchi gap turi.
Ega – Subjekt (m, -s, -e) (lat.)	Kesimdan anglashilgan belgi, harakat, holatning kimga yoki nimaga tegishli ekanligini anglatuvchi bo'lak. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirib, wer? was? so'rog'iga javob bo'ladi: <i>Der Student schreibt den Aufsatz.</i> – <i>Wer schreibt den Aufsatz?</i>
Ega ergash gapli qo'shma gap – Subjektsatz (m, -es, Sätze)	Bosh gapda ega vazifasida kelgan so'zning ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi va <i>wer? (kim?), was? (nima?)</i> so'roqlariga javob bo'ladi. Ega ergash gaplar bosh gapga nisbatan o'rniga ko'ra undan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Ega ergash gap bosh gapga bog'lanish usuliga ko'ra bog'lovchili va bog'lovchisiz bo'ladi. Bog'lovchili qo'shma gaplarda ega ergash gap bosh gapga: a) bog'lovchilar; b) nisbiy olmoshlar; c) nisbiy ravishlar yordamida birikib keladi.
	<p style="text-align: center;">Subjektsatz</p> <p style="text-align: center;">⏟</p> <p style="text-align: center;"><i>Dass er nicht kommt, beunruhigt sie.</i></p> <p style="text-align: center;">Subjektsatz</p> <p style="text-align: center;">⏟</p> <p style="text-align: center;"><i>Ob er kommt, ist ungewiss.</i></p> <p style="text-align: center;">Subjektsatz</p> <p style="text-align: center;">⏟</p> <p style="text-align: center;"><i>Wer nicht fragt, bleibt dumm.</i></p>
Egalik olmoshi – Possessivpronomen (n, -s, -/ -mina) (lat.)	Narsa-predmetning biror shaxsga qarashli ekanini bildiradi. Har bir kishilik olmoshiga ma'lum bir egalik olmoshi to'g'ri keladi. Egalik olmoshi Wessen? (Kimning? Kimniki?) savoliga javob beradi va predmetning biror shaxsga qarashli ekanligini bildiradi. Ular, odatda, otdan oldin keladi va aniqlanmish bilan rod, son, kelishikda moslashadi.

	<i>ich → mein, du → dein, er → sein, sie → ihr, wir → unser, ihr → euer, sie → ihrer</i>
Ergash gap – Nebensatz (m, -es, Sätze)	<p>Qo'shma gap sostavida bosh gapga ergashib unga tobe bo'lib, bosh gapni yoki uning biror bo'lagini ma'lum darajada aniqlab, belgilab keluvchi gap.</p> <p style="text-align: center;">Hauptsatz</p> <p style="text-align: center;">Subjekt Prädikat <i>Es regnete,</i></p> <p style="text-align: center;">Nebensatz</p> <p style="text-align: center;">Konyunktion Subjekt Prädikat <i>als der Bus kam.</i></p>
Ergash gapli qo'shma gap – Satzgefüge (n, -s, -)	<p>Ergash gapli qo'shma gaplar ham bog'langan qo'shma gaplardek ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topadi. Biroq ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro teng munosabatda bo'lolmaydi. Ulardan biri gapda grammatik hokim bo'lib, bosh gap (der Hauptsatz)ni tashkil etsa, ikkinchisi unga tobe bo'lib kelib, ergash gap (der Nebensatz)ni tashkil etadi. Ba'zi ergash gaplar bosh gapni butunicha, ba'zilari esa uning biror bo'lagini izohlab, to'ldirib, aniqlab keladi. Ergash gap bosh gapga tobe munosabatda bo'ladi, unga ergashadi.</p> <p><i>Mein kleiner Bruder trainiert täglich, weil er sich auf die Meisterschaft vorbereitet.</i></p>
Ergashtiruvchi bog'lovchilar – unterordnende Konjunktionen (die, pl.)	<p>Ergashtiruvchi bog'lovchilar ergash gapni bosh gapga bog'lash uchungina xizmat qiladi. Nisbiy olmoshlar, nisbiy ravishlar va nisbiy olmosh ravishlar ergash gapni bosh gapga bog'lash bilan birga ergash gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasini ham bajaradi.</p> <p><i>Es war schon spät, als wir endlich nach Hause kamen.</i></p>
Fe'l – Verb (n, -s, -en)	<p>Fe'l gap bo'laklari orasida alohida o'ringa ega. Uning boshqa so'zlar bilan bog'lanishi nemis tilida gapning tuzilishini belgilaydi. Fe'l shakl va tuzilishining ko'pligi va xilma-xilligi bo'yicha eng murakkab so'z turkumi sanaladi. Fe'llar miqdor jihatidan butun nemis tili lug'at boyligining 25 foizini tashkil qiladi.</p>

	<i>Mein Freund wird morgen nach Deutschland abgefahren sein.</i>
Gap – Satz (m, -es, Sätze)	Grammatika va intonatsiya jihatidan shakllangan nisbiy tugallikka ega bo'lgan nutq bo'lagi. Gap nutqimizning eng kichik bo'lagi hisoblanadi. U mazmunan, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan birliklarni tashkil etadi. Gap orqali biz fikr, buyruq, istak va boshqa fikrlarni bayon etamiz.
Gap bo'laklari – die Satzglieder	Gap strukturasiidagi ma'lum bir so'roqqa javob bo'luvchi va ma'lum bir vazifada keluvchi so'z yoki so'z birlikmalari.
Grammatika – Grammatik (f, -, -en)	Tilning grammatik qurilishi, ya'ni tildagi so'zlarning tuzilishi, tarkibi, o'zgarishi va ularning gapda birikib kelishi qoidalari to'g'risidagi fan. Grammatika bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan ikki asosiy qism – morfologiya va sintaksisdan tarkib topgan.
Gumon olmoshi – Indefinitpronomen (n, -s, -) (lat.)	So'zlovchi uchun noma'lum, noaniq bo'lgan predmet yoki belgini anglatadi. Gumon olmoshiga <i>man, einer, jemand, jeder, jedermann, mancher, etwas, alle, viele, einige, wenige</i> kiradi. Bu olmoshlardan <i>man, einer, jemand, jedermann, etwas</i> har doim ot o'rnida <i>alle, viele, einige, wenige, jeder, mancher</i> ot va sifat o'rnida keladi. Bu olmoshlar ma'no jihatidan bir-biridan farq qiladi. <i>In Usbekistan baut man neue Wohnhäuser, Schulen, Krankenhäuser und Stadien.</i>
Harakat nomi – Infinitiv (m, -s, -e)	Fe'l (ish-harakat)ning nominigina bildiruvchi zamon, mayl, shaxs-son kabi ma'nolarga ega bo'lmaydigan funksional forma. Bu forma -en, -eln, -ern affiks-lari yordamida yasaladi: <i>laufen, wechseln, poltern.</i>
Hol – Adverbiale (n, -s, ..-ien)	Kesimga bog'lanib uning belgisini bildiradigan bo'lak. Hol ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, sababini, maqsadini yoki uning bajarilishi bilan bog'liq o'rin yo paytni bildirgan gap bo'lagidir. Nemis tilida hol, asosan, ravish, predlogli ot va Infinitiv oborotlari bilan ifodalanadi.

Holat ravishlari – Adverbien der Art und Weise	Holat ravishi ish-harakatning qanday holatda va usulda bajarilishini bildirib, wie? (qanday?) va auf welche Weise? (qay tarzda?) so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan, <i>Ich zeig' ihm rasch den blutgeschriebnen Titel.</i> <i>Sie löst sich langsam, nicht zerstiebend, von mir ab.</i>
Hozirgi zamon fe'li – Präsens (n, -, Präsenta / Präsensien (lat.))	Hozirgi zamon fe'lining sodda zamon shakli bo'lib, u ish-harakatning hozirgi yoki hozirgi-kelasi zamonada bo'lishini ifodalaydi. <i>Präsens = fe'l o'zagi + fe'ning shaxs qo'shimchalari qo'shish orqali yasaladi.</i> <i>Ein Mann wartet (gerade) auf den Bus.</i>
Izohlovchi – Apposition (f, -en) Bel-satz (m, -es, Sätze)	Aniqlovchining belgi-xususiyatni qo'shimcha nom bilan ifodalovchi turi.
Ikkinchi darajali bo'laklar – Nebenglieder (die, pl.)	Gapda bosh bo'laklardan biriga bog'lanib unga tobe holda qo'llanadigan bo'laklar.
Ikki sostavli gap – zweigliedriger Satz (m, -es, Sätze)	Ega va kesimi mavjud bo'lgan gap.
Inversiya – ungerade Wortfolge (f, -n)	Ma'lum stilistik maqsad va boshqa sabab bilan tuzilgan teskari so'z tartibi: Die Stunde beginnt bald (odatdagi to'g'ri so'z tartibi), Bald beginnt die Stunde (inversiya, teskari so'z tartibi). <i>In Deutschland lebt mein Freund.</i>
Inkor olmoshi – Negativpronomen (n, -s, -/ -mina) (lat.)	Nemis tilida <i>niemand – hech kim, nichts – hech narsa, kein (otlarni inkor etish uchun qo'llanadi)</i> kabi so'zlar inkor ma'nosini ifoda etib, inkor olmoshlari bo'lib keladi. <i>Der Student hat dem Lehrer nichts gesagt.</i> <i>Meinen Vater trinkt kein Alkohol.</i>
Inkor yuklamasi – negatives Partikel (f, -n)	<i>nicht, nicht einmal</i> kabi inkor ma'noni ifoda etuvchi yuklama.
Intonatsiya – Intonation (f, -en)	Gapdagi pauza, ohang, logik va ritmik urg'u kabi sintaktik aloqani o'z ichiga oladi. U so'zlarni birikmalarga, birikmalarni esa gapga birlashtiradi.
Infinitiv – (Infinite m)	Ham fe'llik, ham otlik xususiyatlariga ega bo'lgan fe'l formasi.

Infinitiv guruhlari – Infinitivgruppen (die, pl.)	um ... zu, ohne ... zu, (an) statt ... zu kabilar bilan birga qo'llanadigan Infinitiv. Quyidagi Infinitiv guruhlari o'z egasiga ega emas. Ular bosh gapda ega vazifasini bajarib kelgan shaxs yoki predmetni ifodalaydi. Ushbu Infinitiv guruhlari ham bosh gapning oldida hamda bosh gapdan keyin kelishi mumkin. Ich gehe in die Bibliothek, um dort das Buch zu lesen. <i>Men kitob o'qish uchun kutubxonaga ketyapman.</i>
Istak gap – Wunschsatz (m, -es, Sätze)	So'zlovchining istagi ifoda etilgan gap.
Istak mayli – Kon- junktiv (m, -s, -e)	Ish-harakatning bajarilishidagi istak, xohish, mumkinlik, taxmin, shubha kabi ma'nolarni ifodalovchi forma. Bu forma, asosan, aniqlik mayli formasiga nisbatan -e unlisining orttirilishi bilan yasaladi: Präsens Konjunktiv: <i>ich komme, fahre, male</i> <i>du kommest, fahrest, malest</i> <i>er, sie, es komme, fahre, male</i> <i>wir kommen, fahren, malen</i> <i>ihr kommet, fahret, malet</i> <i>sie, Sie kommen, fahren, malen</i>
Ichki fleksiya – in- nere Flexion (f-, -en)	Nemis tilida ichki fleksiya uch turga ega: ablaut, umlaut, tonning kuchayishi.
Jenskiy rod – weib- liches Geschlecht (n, -s, -er)	Nemis tilida die artikliga ega bo'lgan ot (<i>die Mutter, die Studentin, die Freiheit</i>).
Jo'nalish kelishigi – Dativ (m, -s, -e)	Ish-harakat yo'nalgan shaxsni yoki narsani ko'rsatuvchi kelishik formasi.
Kasr son – Bruch- zahlwort (n, -s, -e/ Wörter)	Kasr sonlar butunning bir bo'lagini, ulushini ifodalaydi: ein Drittel (uchdan bir qism), ein zwanzigstel (1/20), 3,6 (drei Komma sechs). Ular gapda ega, kesimning bir qismi, aniqlovchi, hol bo'lib keladi.
Kelasi zamon – Fu- tur (n, -s, -e) (<i>lat.</i>)	Nemis tilida kelasi zamon fe'lining ikki turi bor: Futurum I – Wir werden nach Deutschland fahren . Futurum II – Wir werden nach Deutschland gefahren sein .

Kelishik kategoriya-si – Kategorie des Kasus (m, -, -) (lat.)	Predmetning shaxsga, narsaga yoki ish-harakatga munosabatini ko'rsatuvchi kategoriya.
Kesim – Prädikat (n- (e) s, -e) (lat.) Satzaussage (f, -, -n)	Kesim gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lib, shaxs, predmet yoki hodisa harakatini, holatini bildiradi.
Kesim ergash gap – Prädikativsatz (m, -es, Sätze)	Bosh gapdagi kesimni izohlab, uning ma'nosini aniqlab keluvchi gap. Kesim ergash gap bosh gapning ot kesimi bo'lib, <i>wer ist das Subjekt? (ega kim?)</i> , <i>Was ist das Subjekt? (ega nima?)</i> , <i>wie ist das Subjekt? (ega qanday?)</i> so'roqlariga javob beradi.
Kiritma so'z – Schaltwort (n- (e)s, ..wörter)	Gapdagi so'zlar bilan formal-grammatik bog'lanmagan, aytilayotgan fikrga so'zlovchi munosabati, emotsiyasi va shu kabilarni ifodalovchi so'z.
Kichraytish formasi – Verkleinerungs-substantiv (das, -s, -e) (lat.), Verkleinerungsform (f=, -en)	Kichraytirish ma'nosini ifodalovchi otlarga xos so'z formasi -lein , -chen suffiksi bilan kelgan hamma otlar: das Büchlein, das Häuschen
Kishilik olmoshi – Personalpronomen (n, -s, -/mina) (lat.)	Shaxsni ko'rsatuvchi, so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zga shaxsning birlik yoki ko'pligini bildiruvchi ich, du, er/sie/es
Kompozitsiya – Komposition (f=, -en)	So'z qo'shish, o'zak qo'shish bilan so'z yasash: <i>die Handuhr, die Wanduhr, die Dachbrücke</i> u.a.
Konjunktiv (istak mayli) – Konjunktiv (m, -s, -e)	Konjunktiv ham aniqlik mayli kabi, asosan, oltita zamon shakliga ega. Biroq bu zamon shakllaridan tashqari unda yana ikkita tasviriy shakl: Konditionalis I va Konditionalis II ham mavjuddir. Konjunktivning zamon shakllari o'zining yasalishi, qo'llanishi va anglatgan ma'nosi jihatidan ham aniqlik mayli zamon shakllaridan farq qiladi.
Konkret ot – konkretes Nomen (m, -s, -/Nomina) (lat.), Substantiv (n, -s, -e)	Real mavjud bo'lgan, belgili, aniq predmetni anglatadigan otlar: <i>die Birne, das Buch, die Erde</i> u.a.
Kuchaytiruv yuklamasi – verstärkendes Partikel (f=, -n)	Kuchaytiruv ma'nosini anglatadi: so, zu, gar, so-gar, selbst, doch (-ku, ham, -u, -da, -oq, -yoq, -ki, -kim)

Kuchli fe'l – starkes Verb (n, -s, -en)	Fe'l o'zagidagi unlini o'zgartirish, ba'zan o'zak undoshini ham o'zgartirish orqali uch asosiy formani yasovchi fe'llar: <i>kommen-kam-gekommen, schreiben-schrieb-geschrieben</i>
Kuchsiz fe'l – schwaches Verb (n, -s, -en)	Präteritum, (Imperfekt) ya'ni aniq o'tgan zamonni -(e) te dental suffiksi va Partizip II (o'tgan zamon sifatdoshi)ni geprefiksi va -(e) t dental suffiksi yordamida yasovchi fe'llar. Aniq o'tgan zamonda kuchsiz fe'llar o'zagi hamma shaxslarda o'zgarmay, o'zicha qo'llash bilan kuchli fe'llardan keskin farq qiladi.
Ko'plik forma – Pluralform (f=, -en)	Predmetning birdan ortiqligi (ko'pligi)ni bildiruvchi forma.
Ko'rsatish olmoshi – Demonstrativpronomen (n, -s, -i-mina) (lat.)	Shaxs, predmet yoki belgini ko'rsatish, ta'kidlash uchun qo'llanuvchi olmoshlar: dieser, -e, -es bu, shu; jener, -e, -es u; solcher, -e, -es bunday, shunday; derselbe, dieselbe, dasselbe xuddi shuning o'zi, dieselben shular; derjenige, diejenige, dasjenige o'sha; diejenigen o'shalar.
Ko'chirma gap – direkte Rede (f=, -n)	Hech o'zgartirmasdan xuddi o'zidek ifodalangan o'zganing gapi. Ko'chirma gap yolg'iz o'zi yoki muallif gapi bilan birgalikda kelishi mumkin. <i>Lara sagte gestern zu Robert: "Ich habe morgen keine Zeit".</i>
Majhul nisbat – Passiv (n, -s, -e)	Majhul nisbat kategoriyasi nemis tilidagi barcha fe'llarga xos emas, u faqat o'timli fe'llarga, ya'ni Akkusativ kelishigida predlogsiz to'ldiruvchiga ega bo'lgan fe'llarga xosdir. <i>Ushbu fe'llarning o'ziga xos tomoni shundaki, ular ikki predmet (shaxs) amalga oshirgan ish-harakatni ifodalaydi: biri – aktiv ishtirok etuvchi, boshqasi – ish-harakat yo'naltirilgan obyekt.</i> <i>Ein interessanter Text wird vom Studenten gelesen.</i>
Mayl kategoriyasi – Kategorie des Modus (m, -, -di)	Harakat bilan subyekt orasidagi aloqaning voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi fe'lga xos grammatik kategoriya. Nemis tilida maylning uch turi bor: aniqlik mayli (der Indikativ), buyruq mayli (der Imperativ) va istak mayli (der Konjunktiv).

Maqsad ergash gap – Finalsatz (m, -es, Sätze)	Maqsad ergash gaplar bosh gapga nisbatan maqsad holi funksiyasini bajaradi. Maqsad ergash gaplar bosh gap bilan damit bog'lovchisi orqali bog'lanadi va ko'pincha undan keyin turadi. Agar bosh va ergash gapning egasi bir xil bo'lsa, maqsad ergash gap o'miga um...zu + Infinitiv guruhi qo'llanadi. <i>Der Lehrer spricht deutlich, damit die Studenten ihn besser verstehen.</i>
Miqdor-daraja ravishi – Adverb des Maßes und des Grades (Grad (m-(e)s, -e)	Ish-harakatning, shuningdek, belgining miqdor-daraja jihatdan belgisini bildiruvchi ravish: sehr, zu, so, ganz, genug (juda, eng, choraklab).
Miqdor-daraja holi – Adverbialbestimmung des Maßes und des Grades (Grad (m-(e)s, -e)	Ish-harakatning bajarilishini miqdor-daraja nuqtayi nazaridan belgilovchi hol: oft, öfter, manchmal, mehrmals (juda, necha marta, ba'zan).
Miqdor-daraja ergash gap – Restriktivsatz (m, -es, Sätze)	Bosh gapdagi harakat-hodisaning miqdorini, darajasini bildiruvchi gap. U (in) wiefern? (in) wie weit? (qancha miqdorda? qay darajada?) so'roqlariga javob bo'ladi.
Modallik – Modalität (f=, -en)	Gapning voqea-hodisa, belgi xususiyatning mavjudligi, biror zamonda ro'y berishi, real yoki norealligi, xohish yoki noroziligi kabi munosabatini ifodalash xususiyati.
Modal so'z – Modalwort (n- (e)s, ..wörter)	So'zlovchining borliqqa bo'lgan ishonch, gumon, tasdiq, inkor kabi munosabatlarini anglatadigan so'zlar: wahrscheinlich, wohl, vielleicht, doch, hoffentlich, sicherlich. <i>Ich komme vielleicht morgen.</i>
Modal fe'l – Modalverb (n, -s, -en)	Eganing ish-harakatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi: ish-harakatni bajarishga bo'lgan istak (wollen), biror ishni qila olishga qodirlik (können), ichki zaruriyatdan, ehtiyojdan kelib chiqadigan majburiylik (müssen) va boshqalar. Modal fe'llar o'zidan keyin Infinitivda turgan zu yuklamasiz to'liq fe'lni talab etadi.

Morfema – Morphem (n, -s, -e) (griech.)	So'zning ma'noli eng kichik bo'linmas qismi. Morfemalar asosiy xususiyatiga ko'ra o'zak morfema va affiksial morfemaga bo'linadi. O'zak so'zning asosida yotgan semantik ma'noni tashkil etadi. Masalan, ver-tret-en, Zeit-ung Kind-er lach-ten / Kind-er lach-ten
Morfologiya – Morphologie (f, -, kein Plural) (griech.)	Tilda so'zlarning o'zgarish formalari sistemasi va grammatikaning so'z formalari yasash usullari hamda so'z yasash qoidalari haqidagi bo'limi.
Moslashadigan aniqlovchi – Kongruierende Attribut (n, -(e)s, -e)	Nemis tilida moslashadigan aniqlovchi aniqlanishdan oldin kelib uning rodi, soni va kelishigi bilan moslashadi.
Moslashmaydigan aniqlovchi – nicht kongruierende Attribut (n, -(e)s, -e)	Moslashmaydigan aniqlovchi aniqlanishga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Ularning ba'zilari aniqlanishdan oldin kelsa, ba'zilari keyin keladi.
Moslashuv – Kongruenz, (f, -, -en) (lat.), Übereinstimmung (f=, -en)	Moslashuv sintaktik aloqaning bir turi bo'lib, bog'langan komponentlar o'zaro moslashgan formada bo'ladi. Bunda tobe so'z hokim so'zning barcha grammatik shakllarini qabul qiladi va unga moslashadi. Masalan, Ein begabter Student.
Mujskoy rod – Maskulinum (n, -s, -na), männliches Geschlecht (m, -(e)s, -er)	Nemis tilida der artikliga ega bo'lgan ot. Masalan, der Vater, der Student, der Lehrer
Mustaqil so'z – selbständiges Wort, Vollwort (n, -(e)s, Wörter)	Mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan va gap bo'lagi vazifasida kela oladigan so'zlar: <i>das Werk, das Wasser, arbeiten, schön, er, sie</i>
Mustaqil fe'l – Vollverb (n, -s, -en)	Mustaqil ma'noga ega bo'lgan, gapning mustaqil bo'lagi vazifasida kela oladigan fe'l. Mustaqil fe'l quyidagi turlarga bo'linadi. a) ish-harakatni ifodalovchi fe'llar: <i>gehen, kommen, rennen, laufen</i> ; b) holatni ifodalovchi fe'llar: <i>stehen, schlafen, liegen, sitzen</i> ; c) bir holatdan ikkinchi holatga o'tishni ifodalovchi fe'llar: <i>einschlaffen, eindösen, erwachen, erfrieren, löschen, verblühen, sterben</i> .

<p>Natija ergash gap – Konsekutivsatz, Folgesatz (m, -es, Sätze)</p>	<p>Bosh gapda ifoda etilgan ish-harakatning natijasini bildiruvchi gap. U bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko'rsatib, <i>wie?</i> (qanday?), <i>mit welcher Folge?</i> (qanday natija bilan), <i>in welchem Maße?</i> <i>bis zu welchem Grade?</i> (qay darajada?) so'roqlariga javob bo'lib keladi. Bosh gapga nisbatan o'rni-ga ko'ra natija ergash gap har doim bosh gapdan keyin keladi. Bosh gapga nisbatan bog'lanish usuliga ko'ra bog'lovchili bo'lib, bunda u bosh gap bilan so daß, daß, als daß, ohne daß bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Masalan, <i>das Wetter ist viel zu schön, als dass ich noch im Bett bleibe.</i></p>
<p>Negiz – Stamm (m,- (e)s, Stämme)</p>	<p>So'zning morfologik qo'shilishi uchun asos bo'ladigan qismi so'z negizidir.</p>
<p>Nisbat kategoriyasi – Kategorie des Genus (n, -, Genera) (lat.)</p>	<p>Fe'l yordamida ifodalanuvchi harakatni subyekt yoki obyektga bo'lgan munosabati. Nemis tilida fé'llar <i>aniq nisbat</i> (<i>das Aktiv</i>), <i>majhul nisbat</i> (<i>das Passiv</i>), <i>holat nisbat</i> (<i>das Stativ</i>)da bo'ladi. Nemis tilida uch tur fe'l nisbatining farqini ularning hammasidan ma'lum bir fe'lning qo'llanishi va uning o'zgarishidan anglab olish mumkin: <i>Man liest das Buch</i> (Aktiv). <i>Das Buch wird</i> (von den jemanden) <i>gelesen</i> (Passiv). <i>Das Buch ist gelesen</i> (Stativ).</p>
<p>Nisbiy olmoshi – Relativpronomen (n, -s, -/ -mina) (lat.)</p>	<p>Nisbiy olmoshlarga der, die, das; die kiradi. Ular ko'rsatish olmoshlari – der, die, das; die ga o'xshab turlanadi. Nisbiy olmosh vazifasida wer va was (ularning turlanishi yuqorida ko'rsatilgan) qo'llanadi, kam hollarda welcher, welche, welches; welche ishlatiladi. <i>Das Buch, das mein Bruder gerade liest, muss sehr spannend sein.</i></p>
<p>Nisbiy sifat – relatives Adjektiv (n, -s, -e)</p>	<p>Predmet belgisini o'rin yoki payt tushunchasi nisbatlash, mo'ljallash, boshqa predmetga o'xshatish kabi ma'nolar orqali ifodalaydigan sifat.</p>

Nol ko'rsatkichli forma – Nullform (f=, -en)	Maxsus affiks bilan shakllanmagan forma yoki formalar. Masalan, otlardagi bosh kelishik (Nominativ), fe'ning Infinitiv formasi nol ko'rsatkichli forma hisoblanadi: <i>der Lehrer, der Unterricht; lesen, schreiben, hören.</i>
Nominativ gap – Nominativsatz (m, -es, Sätze)	Predmet yoki hodisaning hozirgi vaqtda mavjudligini ko'rsatuvchi va shu mavjudlik faktini tasdiqlovchi gap.
Noto'g'ri tuslanadigan fe'l – unregelmäßiges Verb (n, -s, -en)	Fe'ning asosiy formasini yasashda tuslanish sistemasidagi umumiy qoidadan tashqari yasaluvchi fe'llar. Bu gruppaga <i>sein, haben, werden, stehe gehen, tun, bringen</i> kabi fe'llar kiradi.
Obyektli fe'l – objektives Verb (n, -s, -en)	Harakatning biror shaxsga yoki predmetga qaratilganligini ifoda etib, o'zidan keyin to'ldiruvini talab qiladigan fe'l.
Obyektsiz fe'l – nicht objektives Verb (n, -s, -en)	Obyekti yo'q, obyekt talab qilmaydigan fe'llar. Masalan, <i>gehen, kommen, arbeiten, fliegen.</i>
Oddiy daraja – Positiv (m, -s, -e)	Sifatning belgisini mutlaq tarzda, nisbatlamay ifodalaydigan formasi. Oddiy darajada bir predmetdagi belgi boshqa predmetdagi ayni shu belgiga qiyos qilinmay, to'g'ridan to'g'ri anglatiladi. Oddiy darajadan sifatning qolgan darajalari yasaladi. Oddiy darajada ham bir predmetdagi belgi ikkinchi bir predmetdagi belgi bilan qiyos etilishi mumkin. Bunday chog'ishtirishda har ikkala predmetdagi belgi ham bir xil bo'ladi va gapda <i>wie, so... wie, ebenso... wie, genauso... wie</i> kabi bog'lovchilar qo'llanadi. <i>Er ist ebenso groß wie du. Dieser Student ist so fleißig wie jener.</i>
Olmosh – Pronomen (n, -s, -/ -mina) (lat.)	Ot, sifat, son, ravish o'rnida qo'llanadigan so'z turkumi. Olmosh predmetni, uning belgisini anglatmay, balki ularni ko'rsatish, mavjudligini bildirish uchun xizmat qiladi.
Olmosh-ravish – Pronominaladverb (n, -s, -en)	Ham olmoshlik, ham ravishlik xususiyatiga ega bo'lib, jonsiz predmet ma'nosini anglatadigan otlar o'rnida qo'llanadigan so'z. Olmosh-ravish wo yoki da ravishlarining tegishli predloglar bilan birikishidan yasaladi. Wo + predlog shakli predlogli otga nisbatan so'roq so'z sifatida ishlatiladi. Da + predlog shakli esa ko'rsatish ma'nosiga ega bo'lib, o'sha otga ishora qiladi, unga javob so'z sifatida qo'llanadi:

	<p>wo + mit = womit da + mit = damit wo + bei = wobei da + bei = dabei wo + für = wofür da + für = dafür wo + zu = wozu da + zu = dazu</p>
Orttirma daraja – Superlativ (m, -s, -e)	<p>Belgi-xususiyatning normal holatdan yuqoriligini, ortiqligini ifodalaydigan daraja formasi. Bu daraja ikki shakl: o'zgaradigan va o'zgarmaydigan shakllarga ega. O'zgarmaydigan orttirma daraja oddiy darajadagi sifatga -sten qo'shimchasini qo'shish va sifat oldidan am predlogi qo'yish bilan yasaladi. U har doim otdan keyin keladi, rod va sonda o'zgarmaydi. U gapning oxirida doim kesim bo'lib keladi:</p> <p>der (das, die) schönste / am schönsten der (das, die) größte / am größten der (das, die) beste / am besten der (das, die) höchste / am höchsten der (das, die) nächste / am nächsten die (das, die) meisten / am meisten</p>
Ot – Nomen (n, -s, -/Nomina) (lat.), Substantiv (n, -s, -e) (lat.), Hauptwort (n, -s, -wörter)	<p>Predmetlik ma'nosini ifodalaydigan, grammatik son, kelishik, rod kategoriyalariga ega bo'lgan mustaqil so'zlar turkumi. Ot shaxs yoki buyumni ifodalab, (wer?) kim? yoki (was?) nima? so'rog'iga javob bo'ladi: Nemis tilida otlar atoqli (Helga, Hans, Thomas, Müller; Berlin, Deutschland;) va turdosh (das Haus, die Stadt, das Kind, die Frau, der Mann) otlarga bo'linadi. Otlar mujskoy, jenskiy, sredniy rod farga bo'linadi. Artikl otning qaysi rodga mansubligini ko'rsatadi.</p>
Ot kesim – nominales Prädikat (n, -s, -e) (lat.)	<p>Fe'ldan boshqa turkumga oid so'z bilan ifodlangan kesim. Masalan, Sie ist Lehrerin. Es war dunkel. Bu misoldagi ist Lehrerin, war dunkel ot kesim hisoblanib, uning tarkibidagi Lehrerin, dunkel so'zlari predikativ vazifasida kelgan.</p>
Payt ravishi – Adverb der Zeit (f, -en)	<p>Ish-harakatning bajarilish paytini bildiruvchi ravish: heute, gestern, morgen (bugun, kecha, ertaga). Payt ravishi ish-harakatning paytini bildirib, wann? (qachon?), wie lange? (qancha vaqt?), seit wann? (qachondan beri?), bis wann? (qachongacha?) kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan, Mein Vater arbeitet schon seit vielen Jahren (seit wann?) in der Schule.</p>

<p>Payt holi – (Adverbialbestimmung der Zeit f)</p>	<p>Ish-harakatning ro'y berish paytini bildirib, wann? (<i>qachon?</i>), seit wann? (<i>qachondan beri?</i>), bis wann (<i>qachongacha?</i>), wie lange? (<i>qay vaqt?</i>) kabi so'roqlarga javob bo'ladi.</p> <p>Payt holi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi: <i>damals, da, lange, jetzt, bald, täglich, immer, manchmal, früh, spät, endlich, gestern, heute, übermorgen, morgens, abends, nachts, sonntags, montags</i> kabi payt ravishlari va <i>von da ab, von heute an, von nun an</i> predloglari va h.k.</p> <p>Payt holi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalana-di.</p> <p>1) payt ravishi bilan: <i>Heute fährt mein Freund nach Samarkand (wann?);</i></p> <p>2) predlogli ot yoki ravish bilan: <i>Nach der Unterricht gehen die Studenten in die Bibliothek (wann?).</i></p>
<p>Payt ergash gapli qo'shma gap – Temporalsatz (m, -es, Sätze)</p>	<p>Nemis tilida payt ergash gap bosh gapga nisbatan payt holi va ish-harakatning paytini, ya'ni uning boshlanishi, tugashi va takrorlanishini bildiradi.</p> <p>Payt ergash gap wann? (<i>qachon?</i>), seit wann? (<i>qachondan beri?</i>), bis wann? (<i>qachongacha?</i>), wie lange? (<i>qancha vaqt, qancha vaqtdan beri?</i>), wie oft? (<i>qanchalik tez?</i>) kabi so'roqlarga javob bo'ladi.</p> <p>Wenn du Zeit hast, komm heute abend zu mir. Als ich jung war, wanderte ich viel. Nachdem er sich ausgeruht hatte, ging er wieder an die Arbeit.</p>
<p>Paradigma – Paradigma (n, -s, -men (-mata) (griech.))</p>	<p>U yoki bu so'z turkumiga xos forma yasalish sistemasi. Masalan: fe'ning shaxs-son paradigmasi.</p>
<p>Partizip I (<i>hozirgi zamon sifatdoshi</i>) – Partizip I (n, -s, -zipien) (<i>lat.</i>)</p>	<p>Partizip I otlar oldida kelganda aniqlovchi vazifasida, fe'llar oldida esa hol vazifasida keladi.</p> <p>Partizip I = Infinitivning o'zagi + end komm-end, sprech-end, halt-end</p> <p>Partizip I bildirgan uzoq va tugallanmagan ish-harakat gapning kesimi ifodalagan ish-harakatga vaqt jihatidan mos keladi. Der sprechende Student ist mein Studienfreund.</p>

<p>Partizip II (<i>o'tgan zamon sifatdoshi</i>) – Partizip II (n, -s, -zipien) (<i>lat.</i>)</p>	<p>Partizip II, Infinitiv II, Futurum II, Konditionalis II kabi analitik formalarning yasalishida ularning komponent sostaviga kiruvchi fe'l formasi. Kuchsiz fe'llarning Partizip II shakli = ge- + o'zak + (e)t. Kuchli fe'llarning Partizip II shakli = ge- + o'zak + (e)n. <i>Der gesprochene Student war mein Studienfreund.</i></p>
<p>Perfekt – Perfekt (n, -s, -e) (<i>lat.</i>)</p>	<p>Perfekt fe'lining qo'shma zamon shakli bo'lib, o'tgan zamonda bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi va suhbatlarda, qisqa axborot va ma'lumotlarni bayon etishda qo'llanadi. Agar fe'l ajraladigan oldqo'shimchali bo'lsa, unda ge- o'zak va oldqo'shimcha orasiga qo'yiladi, masalan, aufmachen – aufgemacht, vorlesen – vorgelesen. Perfekt haben/sein + Präsens + Partizip II <i>Die Studenten haben den Text übersetzt (Transitives Verb).</i> <i>Er ist schon früh nach Hause gegangen (Intransitives Verb).</i></p>
<p>Plusquamperfekt – Plusquamperfekt (n, -s, -e) (<i>lat.</i>)</p>	<p>O'tgan zamonda bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. U bu ma'noda, asosan, nisbiy qo'llanadi va o'tgan zamonda bo'lib o'tgan ish-harakatning ketma-ket amalga oshganligini bildiradi. Oldin bo'lgan ish-harakat Plusquamperfektida, undan keyin yuz bergani esa Präteritumda turadi. Haben va sein ko'makchi fe'llarning Plusquamperfektida qo'llanishi perfektdagidek bo'ladi. Plusquamperfekt haben/sein + Präteritum + Partizip II <i>Die Studenten hatten den Text übersetzt.</i> <i>Er war schon früh nach Hause gegangen.</i></p>
<p>Prädikativ aloqa – Prädikative Verbindung (f=, -en)</p>	<p>Ega va kesim munosabatini ko'rsatuvchi aloqa.</p>
<p>Prädikativ birikma – (Prädikative Wortgruppe (f=, -n)</p>	<p>Ikki sostavli gapning struktura asosini, grammatik markazini tashkil etuvchi ega va kesim bog'lama-si.</p>
<p>Prädikativität – Prädikativität (f=, -n)</p>	<p>Gapning real borliq haqidagi xabarni ifodalash xususiyati.</p>

Predlog – Präposition (f, -, -tionen) (lat.)	Predloglar gapdagi so'zlarni bir-biriga bog'laydi va ular orasidagi munosabatlarni (payt, sabab, maqsad kabi) ifodalashga xizmat qiladi. Aksar predloglar ko'p ma'noli sanaladi. Agar ajraladigan oldqo'shimchali fe'l shu oldqo'shimchaga ma'nodosh predlog bilan birga kelsa, ajraladigan oldqo'shimcha tushirib qoldiriladi.
Präsens Konjunktiv – Präsens des Konjunktivs (m, -s, -e)	Fe'ning bajarilishi mumkin bo'lgan istak, real mumkinlik, buyruq va shunga o'xshagan ma'nolarni anglatuvchi formasi.
Präterital zamon formalari – Präteritalen Zeitformen (die, pl.)	Bunga bajarilishi mumkin bo'lmagan orzu-istak yoki real bo'lmagan ish-harakatni ifoda etuvchi Präteritem, Plusquamperfekt, Konditionalis I va Konditionalis II zamon formalari kiradi.
Preterito-presentia fe'llari – (die Verben Präterito-Präsens) (n, -, Präsens) / Präsens (lat.)	Bu guruhga <i>können, müssen, mögen, dürfen, sollen, wollen</i> modal fe'llari va <i>wissen</i> fe'li kiradi. Preterito-presentia fe'llarining Präsensda tuslanishi kuchli fe'llarning Präteritem (Imperfekt)da tuslanishiga o'xshagani uchun ham ular <i>Preterito-Presentia fe'llari</i> deb yuritiladi. Bu fe'llardan uch asosiy shakl yasalganda Imperfekt va Sifatdosh II da Infinitivdagi umlaut tushib qoladi, <i>mögen</i> fe'li g undoshini har ikkala shaklda ch ga, <i>wissen</i> fe'li esa o'zagidagi i ni u ga almashtiradi: Infinitiv – Präteritum Partizip II <i>können – konnte – gekonnt</i> <i>dürfen – durfte – gedurft</i> <i>mögen – mochte – gemocht</i> <i>müssen – mußte – gemußt</i> <i>wollen – wollte – gewollt</i> <i>sollen – sollte – gesollt</i> <i>wissen – wußte – gewußt</i>
Prefiks – Präfix (n, -es, -e) (lat.)	So'z oldiga qo'shiluvchi affiks ge- das Gebirge , be- bekommen.
Qaratqich kelishigi – Genitiv (m, -s, -e) (lat.), Wesfall (m, -s, -fälle)	Predmet qarashli bo'lgan shaxs yoki narsani bildiruvchi kelishik. <i>Meines Bruders Frau arbeitet in der Schule als Lehrerin.</i>

Qo'shma fe'l kesim – zusammenge- setztes verbales Prädikat (n, -s, -e) (lat.)	Leksik ma'noga ega bo'lgan ikki fe'ldan tashkil topgan kesim.
Ravish – Adverb (n, -s, -ien) Umstandswort (n, -s, -wörter)	Ish-harakatning qay holda bajarilishini, paytini, sababini, o'rnini va ba'zan predmetning belgisini ifoda etadigan so'z turkumi.
Ravish holi – Ad- verbialbestimmung (f=, -en), der Art und Weise (f=, -n)	Ish-harakatning qay holda bajarilishini bildirib, wie? (qanday?), auf welche Weise? (qanday qilib?) kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Ravish holi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi: <i>rasch, schnell, hastig, leise, langsam, ruhig, still, offen, mürrisch, gut</i> kabi holat ravishlari.
Sabab bog'lovchisi – kausale Konjunk- tion (f=, -en)	Bosh va ergash gapdagi voqea-hodisaning sabab munosabatini ko'rsatish yo'li bilan ularni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi bog'lovchilar: <i>denn, weil, da</i> .
Sabab ravishi – Ad- verb des Grundes (m, -(e)s, Gründe)	Ish-harakatning bajarilish sababini bildiradi: <i>darum, deshalb, deswegen, daher</i> . Deswegen (<i>weshalb?</i>) kommst du zu mir?
Sabab ergash gap – Kausalsatz (m, -es, -sätze) (lat.)	Sabab ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapdagi ish-harakatning sababini ifodalaydi. Sabab ergash gaplar bosh gap bilan weil va da bog'lovchilari orqali bog'lanib keladi. <i>Du musst dich beeilen, weil du spät dran bist.</i>
Sanoq son – Grundzahl (f, -, -en)	Predmet miqdorini sanash bilan bildiruvchi son <i>wieviel?</i> (<i>qancha, necha, nechta?</i>) so'rog'iga javob beradi: <i>vier Tage, zwei Freunde, drei Fehler.</i>
Sintaksis – Syntax (f, -, -en) (griech.)	Grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zlarning va gaplarning o'zaro birikish usullari, gap va uning tuzilishi, turlari va gap bo'laklarining xususiyatlarini o'rganadi. Sintaksisning asosiy o'rganish obyekti gapdir.
Sintetik forma – synthetische Form (f=, -en)	Affikslar yordamida hosil bo'luvchi forma.

<p>Sifat – Adjektiv (n, -s, -e), Beiwort (n, -(e)s, ..wörter)</p>	<p>Sifatlar predmetning belgisini, xususiyatini ifodalaydi va wie? (qanday? qanaqa?) savoliga javob beradi. Sifatlar shaxsga, predmetga, fikrga baho beradi, gapni bezaydi, unga ifodalilik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Nemis tilida sifatlar uch xil turlanadi: kuchli, kuchsiz, aralash. Sifatlar o'zidan oldin rod, son yoki kelishik bildiruvchi so'zlar – artikl, olmosh yoki sonning bor-yo'qligiga qarab turlanadi.</p>
<p>Sifatdosh – Partizip (das, -s, -zipi-en) (lat.)</p>	<p>Sifatdosh fe'lining sifatga xos xususiyatini, predmet belgisini ko'rsatuvchi formadir. U ham fe'llik, ham sifatlik xususiyatlariga ega. Nemis tilida ikki xil sifatdosh mavjud: sifatdosh I (partizip I) va sifatdosh II (partizip II).</p>
<p>Sifatlarning otlashuvi – Substantivierung der Adjektive (die, pl.)</p>	<p>Sifatlarning ot turkumiga o'tishi, otlarga xos ma'no va vazifada qo'llanishi.</p>
<p>Sodda gap – einfacher Satz (m, -es, Sätze)</p>	<p>Struktura va intonatsiya jihatdan shakllangan nisbiy tugai fikr ifodalaydigan ayrim gaplarga (predikativ qo'shilmalarga) bo'linmaydigan sintaktik birlik.</p>
<p>Sodda fe'l kesim – einfache verbales Prädikat (n, -s, -e) (lat.)</p>	<p>Birgina fe'l bilan ifoda etilgan kesim.</p>
<p>Sodda fe'l – einfaches oder Stammverb (n, -s, -en)</p>	<p>Birgina o'zakdan iborat bo'lgan fe'l. Masalan, <i>loben, schreiben, denken, wachsen, bauen</i> kabi fe'llar.</p>
<p>Son – Numerale (n, -s, -ralien) (lat.), Zahlwort (n, -es, -wörter)</p>	<p>Predmetning son-sanog'ini, miqdorini, tartib belgisini bildiruvchi so'z turkumi. Nemis tilida sonlar o'z ma'nosiga ko'ra sanoq sonlar (die Kardinalzahlen – Grundzahlen), tartib sonlar (die Ordinalzahlen – Ordnungszahlen), kasr sonlar (die Bruchzahlen), taqsim sonlar (die Verteilungszahlen), ko'paytiruvchi sonlar (die Viervielfältigungszahlen) va qaytariluvchi sonlar (die Wiederholungszahlen)ga bo'linadi.</p>
<p>Son kategoriyasi – Kategorie der Zahl (f=, -en)</p>	<p>Fe'lda ikki xil son: birlik (der Singular) va ko'plik (der Plural) mavjud. Fe'lda son maxsus qo'shimchalar vositasida hosil qilinmaydi. Shaxs qo'shimchalari son ma'nosini ham anglatadi, shuning uchun ular shaxs-son qo'shimchalari deb yuritiladi.</p>

Sonlarning otlashuvi – Substantivierung der Numeralien (die, pl.)	Nemis tilida sonlar otlashadi. Otlashgan sonlar birlik, ko'plik, kelishik shakllariga ega bo'ladi: <i>eine Million</i> , birlik, <i>ein halbes</i> , <i>Tausende von Menschen</i> . Nemis tilida otlashgan sonlar otlar kabi aniq va noaniq artikllarga ham ega bo'ladi: <i>die Eins</i> , <i>die Zwei</i> , <i>die Drei</i> , <i>einhundert Menschen</i> , ba'zan artiklsiz ham qo'llanishi mumkin: <i>Hundert Menschen</i> .
Sredniy rod – Neutrum (n, -s, -tra/-tren) (griech.), sächliches Geschlecht (n, -s, -er)	Nemis tilida das artikliga ega bo'lgan otlar. Masalan, <i>das Büchlein</i> , <i>das Gefängnis</i> , <i>das Museum</i> , <i>das Lesen</i> .
Subyekt fe'li – subjektives Verb (n, -s, -en)	Faqat subyekt (ega) holatini ifoda etadigan va to'ldiruvchini talab qilmaydigan fe'l.
Substantivaziya – Substantivierung (f=, -en)	Boshqa turkumga oid so'zlarning otga ko'chishi. Masalan, <i>der Schritt</i> (<i>schreiten</i>), <i>die Eins</i> (<i>eins</i>), <i>die Größe</i> (<i>groß</i>), <i>das Schreiben</i> (<i>schreiben</i>).
Suffiks – Suffix (n, -es, -e) (lat.)	So'zda o'zak morfemadan keyin keladigan, o'zak morfemadan keyin qo'shiladigan affiks: <i>der Lehrer</i> , <i>Leuchter</i> , <i>der Künstler</i> , <i>der Taschkenter</i> .
So'z birikmasi – Wortgruppe (f=, -n), Wortgefüge (n, -s, -)	Tobelanish asosida o'zaro bog'lanib semantik va grammatik jihatdan bir butunlik hosil qilgan ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlar bog'lamasi. So'zlar o'zaro ikki usul bilan, ya'ni teng va tobe holda bog'lanadi. Teng holda bog'langan so'zlar (<i>die beigeordneten Wortgruppen</i>) ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topib, funksiya jihatidan biri ikkinchisidan farq qilmaydi, ya'ni hammasi ham «teng huquqli» gap bo'lagi bo'lib keladi. Shuning uchun mazkur bog'lanish teng bog'lanish deb yuritiladi. Bunday so'zlar o'zaro bog'lovchilar yordamida yoki ularsiz aloqaga kirishishi mumkin. Masalan, <i>Der Lehrer liegt Hefte und Bücher auf den Tisch</i> .
So'z turkumi – Redeteil (m, -(e)s, -e), Wortart (f, -, -en)	So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari.

So'roq gap – Fragesatz (m, -es, Sätze)	<p>So'roq gap voqea-hodisa haqida ma'lumot olish, narsa-predmet to'g'risida bilish uchun xizmat qiladi.</p> <p>So'roq gaplar oxirida so'roq belgisi qo'yiladi. So'roq gaplar to'rtga bo'linadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. So'roq so'zsiz so'roq gap (die Fragesätze ohne Fragewort). 2. So'roq so'zli so'roq gap (die Fragesätze mit Fragewort). 3. Tasdiqlovchi so'roq gaplar (die Bestätigungsfragesätze). 4. Ritorik so'roq gaplar (die rhetorischen Fragesätze).
So'roq olmoshi – Interrogativpronomen (n, -s, -)	<p>Noma'lum shaxs, predmet, belgi kabilar haqida so'roqni bildiruvchi olmoshlar; wer (<i>kim</i>), was (<i>nima</i>), welcher (welche, welches) (<i>qanday, qanaqa, qaysi</i>), was für ein (was für eine, was für ein) (<i>qanday, qanaqa</i>) kabi olmoshlardir. So'roq olmoshlari turlanish va qo'llanish jihatidan bir-biridan farq qiladi. Wer, was so'roq olmoshlari faqat predmet haqidagi so'roqni anglatadi. Wer so'roq olmoshi shaxslar uchun, was esa hayvon, qushlar, hasharot va jonsiz predmetlar uchun qo'llanadi. Ular faqat birlik shaklida kela oladi. Was olmoshi ba'zan shaxs haqidagi so'roqni ham anglatadi. Bunda u shaxsning kasbi, mashg'ulotini ifodalab keladi. Masalan, <i>Ich habe hier zwei Bücher. Welches gefällt dir am besten?</i> / <i>Welches Buch gefällt dir am besten?</i></p>
Tartib son – Ordnungszahlwort (n, -s, -e/Wörter)	<p>Predmetning sanoqdagi tartibini bildirib, der wieviele? die wieviele? das wieviele (nechanchi)? so'rog'iga javob bo'lgan sonlar tartib sonlar deyiladi. Sanoq sonlarning oxiriga -te, -ste qo'shimchasi qo'shish bilan tartib sonlar yasaladi. 2 dan 19 gacha bo'lgan sonlarga -te, 20 dan ortiq bo'lgan sonlarga esa -ste qo'shimchasi qo'shiladi: <i>der zweite, der fünfte, der zwölfte, der zwanzigste, der vierzigste.</i></p> <p><i>eins, drei, acht</i> sonlaridan tartib son noto'g'ri yasaladi:</p> <p>eins – bir der (die, das) erste – birinchi drei – uch der (die, das) dritte – uchinchi acht – sakkiz der (die, das) achte – sakkizinchi</p>

Tashqi fleksiya – äußeve Flexion (f, -, -en) (lat.)	Tashqi fleksiyaga affikslar (prefikslar va suffikslar) hamda qo'shimchalar kiradi.
Taqldiy so'z – Lautnachahmung (f=, -en)	Tovushga, obrazga va tabiatdagi boshqa turli ho- disalarga taqlidni bildiruvchi so'zlar: kling-kling! (lip-lip!)
Teng bog'lovchi – beordnende Kon- junktion (f=, -en)	Gap bo'laklari va qo'shma gap sostavida- gi gaplarning teng munosabatini ko'rsatib, ularni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiluvchi bog'lovchi. Nemis tilida teng bog'lovchi ifodalay- digan mazmuniga ko'ra biriktiruvchi bog'lovchi- ga, zidlovchi bog'lovchiga, ayiruvchi bog'lovchi- ga va sabab-natija bog'lovchilariga bo'linadi.
Tub so'z – Wort- kern (m, -(e)s, -e)	Yasovchi komponentlarga ega bo'lmagan so'z tub so'z deyiladi.
Turdosh ot – Gat- tungsname (m, (-ns, -n, -n, -n)	Bir xil turdagi predmetlarning, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi.
Turlanish – Dekli- nation (f=, -en)	Otning kelishiklar bo'yicha o'zgarishiga turlanish deyiladi. Bulardan Nominativ vositasiz (der gera- de Kasus), qolgan uch kelishik (Genitiv, Dativ, Ak- kusativ) vositali kelishik (die obliquen (abhängig) Kasus) deyiladi. Otlarning turlanish xillari birgalik- da aniqlanib, ular artikl va kelishik qo'shimchala- ri yordamida belgilanadi. Bunda artikl muhim rol o'ynaydi, chunki nemis tilida kelishik qo'shim- chalarining soni kam, ular faqat -(e)s, -e, -(e)n dan iborat.
Tuslanish – Konju- gation (f=, -en)	Fe'ning mayl, zamon, shaxs-son formalarida o'zgarishi: I. Ich lese wir lesen II. Du liest ihr lest III. er/sie/es liest sie/Sie lese
Tuslovchi – Affix der Konjugation	Fe'ning mayl, zamon, shaxs-son formalarini hosil qiluvchi affiks.
Tushum kelishigi – Akkusativ (m, -s, -e) (lat.), Wenfall (m, -s, -fälle)	Harakat yo'nalgan obyektini ko'rsatuvchi kelishik formasi.

<p>To'ldiruvchi – Objekt (n, -(e)s, -e), Ergänzung (f, -en)</p>	<p>Hokim so'zga (kesimga) boshqaruv yo'li bilan birikib, kesimdan anglashilgan harakat, belgi o'ziga yo'nalgan yoki shu harakatga qandaydir yo'l bilan bog'langan predmetni bildiruvchi gap bo'ladi. To'ldiruvchi gapning ikkinchi darajali bo'ladi bo'lib, kesimning ma'nosini to'ldiradi. To'ldiruvchilar uch turga bo'linadi: ☞ Vositasiz to'ldiruvchi (das Akkuzativobjekt) ☞ Jo'nalish kelishidagi to'ldiruvchi (das Dativobjekt) ☞ Predlogli to'ldiruvchi (das präpositionale Objekt)</p>
<p>To'ldiruvchi ergash gap – Objektsatz (m, -es, Sätze)</p>	<p>To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga nisbatan to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. U bosh gapdagi to'ldiruvchining mazmunini izohlab, konkretlashtirib keladi va <i>wen?</i> (kimni?), <i>was?</i> (nimani?), <i>wem?</i> (kimga, nimaga), <i>womit?</i> (nima bilan?), <i>wofür?</i> (nima uchun?), <i>worüber?</i> (nima to'g'risida?), <i>wessen</i> (nimaning? kimning?), <i>wovon</i> (nima to'g'risida?) kabi savollarga javob berib keladi. To'ldiruvchi ergash gap ham o'zlashtirma gapda, ham ko'chirma gapda ishlatiladi: <i>Ich bin mir sicher, dass ich die Prüfung bestehe.</i> → Wessen bin ich mir sicher? (Genitivobjekt) → Ich bin dessen sicher.</p>
<p>To'liq gap – voller Satz (m, -es, Sätze)</p>	<p>Bayon etilayotgan fikrni to'la ifodalash uchun kerakli gap bo'laklariga ega bo'lgan gap.</p>
<p>To'liqsiz gap – unvollständiger Satz (m, -es, Sätze)</p>	<p>Bir yoki bir necha gap bo'ladi qo'llanmagan gap.</p>
<p>To'liqsiz ramka – unvoller Rahmen (m, -s, -)</p>	<p>Ba'zida gapning ma'lum bir qismini bo'rttirib ko'rsatish uchun shu bo'lak ramkadan chiqarilib, gapning oxiriga joylashtiriladi.</p>
<p>To'siqsiz ergash gap – Konzessivsatz (m, -es, Sätze)</p>	<p>Nemis tilida to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning ro'yobga chiqishiga biror to'siqning bo'lishi, lekin shu to'siqqa qaramasdan, ish-harakatning bajariishi ko'rsatiladi. To'siqsiz ergash gap bosh gapda obwohl va obgleich bog'lovchilari qo'llanadi.</p>

	<p>To'siqsiz ergash gap <i>trotz welchem Umstandes?</i> (<i>qanday sharoitga qaramay?</i>), <i>wessenungeachtet?</i> (<i>nimaga qaramasdan?</i>) so'roqlariga javob bo'lib keladi: <i>Obwohl er müde war, fuhr er Auto.</i></p>
Umlaut – Umlaut (m, -s, -e)	Nemis tilida a, o, u unilari va au diftongining umlaut olishi (a → ä , o → ö , u → ü , au → äu).
Undalma – Anrede (f=, -n)	So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni ko'rsatuvchi, gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirmaydigan so'z: <i>Das, mein Freund, wird dir nicht viel helfen.</i>
Undov – Interjektion (f, -, -tionen) (<i>lat.</i>), Empfindungswort (n, -es, ..wörter)	<p>Undovlar predmet yoki belgini ko'rsatmaydi, ya'ni ular atash xususiyatiga ega emas. Undov tuyg'u, his-hayajon kabi ma'nolarni eng qisqa yo'l bilan ifoda etadigan so'zdir. Undovlar gapning biror bo'lagi vazifasida kelolmaydi, morfologik belgilarga egamas. Undovlar ma'noga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) his-hayajon undovlari; 2) buyruq-xitob undovlari.</p> <p>His-hayajon undovlari quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ☞ sevinchni anglatadigan undovlar: ei!, juchhe!; ☞ jismoniy og'riqni anglatadigan undovlar: au!, autsch!, weh!; ☞ taajjubni anglatadigan undovlar: ach!, ei-el!, oh!, oho!, o!; ☞ qo'rqinchni anglatadigan undovlar: pfui!, huil!, hul!, huhu!, uh!; ☞ shubhani anglatadigan undovlar: hm, hm, hm; na, na, na; ☞ achinish, bezovtalanishni anglatadigan undovlar: ätsch!, hoho!, haha!, il, hehehe!; ☞ nafrat, jirkanishni anglatadigan undovlar: br, bäh, pfui, pfui äks, fi, ih, igitt, (e), äh, puh; ☞ qayg'u, xafalikni anglatadigan undovlar: ach!, oh!, o, weh, oje, ojemine, herrje, herrjemine; ☞ e'tirozni va istamaslikni anglatadigan undovlar: ach (was), na; ☞ qanoatlanaganlikni anglatadigan undovlar: aha, hm, topp; ☞ g'azabni anglatadigan undovlar: ha, oho, oha, hoho, ih, na.

	<p>Buyruq-xitob undovlari quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ☞ chaqirish undovlari: put-put, pile pile, mizi mizi, biele biele; ☞ haydash undovlari: hü, hottehü-vorwärts; har, wist-links; hot-rechts; huf-zurück; ☞ hayvonlarni harakatdan to'xtatish yoki tinchlantirish maqsadida ishlatiladigan buyruq-xitob undovlari: pat, pscht, st, sch.
Undov gap – Ausrufesatz (m, -es, Sätze), Exklamativsatz (m, -es, Sätze)	<p>Fikmi kuchli his-hayajon bilan ifodalovchi gap. Undov gap ja, aber, va doch yuklamalari bilan qo'llanadi.</p> <p>Masalan, Ist das aber ein Spaß! Das ist ja nett!</p> <p>Das klappt doch prima!</p>
Uyushiq bo'laklar – gleichartige Satzglieder (die, pl.)	<p>Gapda bir-biri bilan teng bog'langan bo'laklar: In Usbekistan baut man neue <i>Wohnhäuser, Schulen, Krankenhäuser</i> und <i>Kindergärten</i>.</p>
Vositali to'ldiruvchi – indirektes Objekt (n, -(e)s, -e)	<p>Tushum kelishigidan boshqa kelishikdagi so'zlar bilan ifodalangan to'ldiruvchi: mit der <i>Straßenbahn</i>.</p>
Vositasiz to'ldiruvchi – indirektes Objekt (n, -(e)s, -e)	<p>Tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchi: <i>Der Student liest das Buch</i>.</p>
Yasama fe'l – abgeleitetes Verb (n, -s, -en)	<p>So'z yasalishining biror usuli bilan hosil qilinadigan fe'l.</p> <p>Yasama fe'llar, asosan, oldqo'shimchalar yordamida hosil qilinadi. Oldqo'shimchalar qo'llanishiga ko'ra ikkiga: <i>ajraladigan</i> va <i>ajralmaydigan oldqo'shimchalarga</i> bo'linadi:</p> <p><i>be-, ge-, er-, ver-, zer-, ent-, emp-, miß-</i> (<i>ajralmaydigan oldqo'shimchalar</i>);</p> <p><i>auf-, an-, aus-, ab-, bei-, ein-, vor-, zu-</i> (<i>ajraladigan oldqo'shimchalar</i>)</p>
Yig'iq gap – einfache nicht erweiterter Satz (m, -es, Sätze)	<p>Bosh bo'laklardan, ya'ni ega va kesimdan tuzilgan gap.</p>
Yig'iq sodda gap – einfache unerweiterter Satz (m, -es, Sätze)	<p>Bosh bo'laklardangina tuzilgan gap.</p>

Yoyiq sodda gap – einfache erweiterte Satz (m, -es, Sätze)	Bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan tashkil topgan gap.
Yordamchi fe'l – Hilfsverb (n, -s, -en)	O'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, fe'lning turli analitik formalarini yasovchi vositaga aylangan fe'l.
Yuklama – Partikel (f, -, -n) (lat.)	So'z, so'z birikmasi yoki gapning mazmuniga qo'shimcha ma'no beruvchi yordamchi so'zlar: <i>Mach doch das Licht an.</i> <i>Sogar er hat Erklärung verstanden.</i>
Zamon kategoriya-si – Kategorie der Zeit, des Tempus	Harakatning nutq momentiga bo'lgan munosabati va shu munosabatni bildiruvchi forma birligi.
Zidlov bog'lovchisi – adversative oder entgegenstellende Konjunktion (f, -en)	Ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi (zid) bo'lgan gap bo'laklarini, shuningdek, qo'shma gap sostavidagi gaplarni bog'lash uchun xizmat qiluvchi bog'lovchilar: aber, oder, trotzdem.
O'zak – Wurzel (f, -, -n)	So'zning asosida yotgan semantik ma'noni tashkil etadi: verkaufen → <i>der Verkäufer</i> → verkaufbar
O'zlashtirma gap – indirekte Rede (f, -, -n)	Shakli o'zgartirilgan, ammo mazmuni aslida berilgan o'zganing gapi. Odatda, o'zlashtirma gap shaklan ergash gap shaklida kelib, muallif gapi unga nisbatan bosh gap funksiyasini bajaradi. O'zlashtirma gap, asosan, muallif gapi (bosh gap) dan oldin va undan keyin, ba'zan esa uning har ikki tomonidan keladi. <i>Mein Freund Robert erzählt, dass ein deutsches Wörterbuch gekaft hat.</i>
O'zlik olmoshi – Reflexivpronomen (das, -s, -/min) (lat.)	Qo'llanish jihatidan boshqa olmoshlardan farq qiladi. Bu olmosh kishilik olmoshi yoki otning ma'nosini aniqlashtirib, Dativ va Akkusativda kela oladi. Shaxs jihatdan ham u cheklangan bo'lib, faqat III shaxsning birlik va ko'pligida qo'llanadi. Qolgan shaxslarda esa kishilik olmoshlarining shu keli-shikdagi shakllari qo'llanadi. Masalan, <i>interessieren sich (für Akk.), kämmen sich, waschen sich, setzen sich Unsere Studenten interessieren sich für Fremdsprache.</i>

O'rin holi – Adverbiale des Ortes	Ish-harakat yoki holatning sodir bo'lish va yo'nalishini bildirib wo? (qayerda?), wohin? (qayerga?), woher? (qayerdan?) so'roqlariga javob bo'ladi: <i>In der Bibliothek lesen die Studenten verschiedene literarische Bücher (wo lesen die Studenten?)</i>
O'tgan zamon – Vergangenheit (f, -)	Harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiruvchi zamon. Bunga: Präteritum, Perfekt, Plusquamperfekt kiradi.
O'tgan zamon fe'li – das Verb der Vergangenheit	Harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiruvchi fe'li formasi.
O'rin ergash gap – Der Lokalsatz (m, -es, Sätze)	O'rin ergash gap bosh gapga nisbatan o'rin holi vazifasini bajaradi va bosh gapdagi ish-harakatning bajarish o'rnini yoki u yo'nalgan tomonni ko'rsatadi. O'rin ergash gap wo? (qayerda?), wohin? (qayerga?), woher? (qayerdan?) so'roqlariga javob bo'ladi: <i>Die Katzen wollen dort liegen, wo es sonnig ist.</i>
Shart ergash gap – Konditionalsatz, Bedingungssatz (m, -es, Sätze)	Shart ergash gap bosh gapga nisbatan shart holi vazifasini bajaradi va bosh gapdagi ish-harakatni bajarish shartini ifodalaydi. Shart ergash gap <i>in welchem Falle?</i> (qanday yoki qay holda?), <i>unter welcher Bedingung?</i> (qanday shart-sharoitda?) so'roqlariga javob bo'ladi. Shart ergash gap bosh gapga nisbatan o'rniga ko'ra, asosan, bosh gapdan oldin keladi. Uning bosh gapdan keyin yoki bosh gap o'rtasida kelish hollari kam uchraydi. Shart ergash gap bosh gapga bog'lanish usuliga ko'ra bog'lovchili va bog'lovchisiz bo'ladi. <i>Wenn wir Zeit haben werden, gehen wir nach dem Unterricht ins Kino.</i>
Shaxs kategoriya-si – Kategorie der Person (f, -en)	Fe'lda shaxs kategoriyasining mavjudligi uning boshqa so'z turkumlaridan farq qiluvchi asosiy belgilaridan biridir. Fe'lda uch shaxs bor: I shaxs (<i>die erste Person</i>) so'zlovchi (<i>die redende Person</i>), II shaxs (<i>die zweite Person</i>) tinglovchi (<i>die angeredete Person</i>), III shaxs (<i>die dritte Person</i>) o'zga (<i>von der geredet wird</i>).

Shaxsli fe'l – persönliches Verb (n, -s, -en)	Fe'ning shaxs-son ko'rsatkichlari va ma'nolariga ega bo'lib tushlangan formasi.
Shaxssiz fe'l – unpersönliches Verb (n, -s, -en)	Fe'ning shaxs-son ma'nolarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga ega bo'lmagan formasi.
Shaxssiz gap – unpersönlicher Satz (m, -es, Sätze)	Ish-harakatni ijro etuvchi shaxsi bo'lmay, ega funksiyasini es shaxssiz olmoshi bajaradigan gap (nemis tiliga xos).
Shaxsi noma'lum gap – unbestimmt-persönlicher Satz (m, -es, Sätze)	Ish-harakatning qanday shaxs tomonidan amalga oshirilishi noma'lum bo'lgan gap.
Shaxssiz olmosh – unpersönliches Pronomen (n, -s, -/ -mina) (lat.)	Nemis tilida es shaxssiz olmoshi mavjud bo'lib, bu olmosh shaxssiz gap va iboralarda qo'llanadi. Es shaxssiz olmoshi gapda tarjima qilinmaydi. Es olmoshi, odatda, kesimi shaxssiz fe'l bilan ifodalangan gaplarda ega vazifasida keladi. Es shaxssiz olmoshi quyidagi hollarda qo'llanadi: gapda tabiat hodisasini ifodalovchi sof shaxssiz fe'llar qo'llanganda, ot-kesim bo'lib keladigan shaxssiz tuzilmalarda, shaxsi aniq fe'llar shaxssiz fe'llar vazifasida kelganda: es schneit (regnet, blitzt), es ist kalt , es ist heiß . es wird Abend , es klopft , es läutet , es schreit .
Chegaralov yuklamasi – einschränkendes Partikel (f=, -n)	Predmetning o'ziga o'xshash predmetlardan kuchli farq qilish, chegaralash, ta'kidlash ma'nosini bildiruvchi yuklama: nur, bloß, allein, erst. Masalan, <i>Alle gingen, nur er nicht.</i> <i>Er allein kann noch helfen.</i>
Chiqish kelishigi (o'zbek tiliga xos)	Nemis tilida maxsus chiqish kelishigi mavjud emas. O'zbek tilida chiqish kelishigi ish-harakatning boshlanish, chiqish o'rnini, vaqti, sababini ko'rsatuvchi kelishik formasi bo'lib, -dan (-tan) affiksi bilan shakllanadi va nemis tiliga von, aus, durch (dan) predloglarining jo'nalish kelishigi (Dativ) orqali ifoda etiladi. <i><u>Viele Gäste kommen aus Deutschland.</u></i>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Birkenhof G.M., Romm S.M., Urojewa R.M. Grammatik mit grammatisch phonitischen Übungen. – M.: Международные отношения, 1980. Ч.1.
2. Birkenhof G.M., Romm S.M., Urojewa R.M. Grammatik mit grammatisch phönitischen Übungen. – M.: Международные отношения, 1980. Ч.2.
3. Genzmer H. Sprache in Bewegung eine deutsche Grammatik. Insel Verlag Frankfurt am Main und Leipzig, 1995.
4. Helbig G., Busha J. Deutsche Grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Veb Verlag Enzyklopädie. – Leipzig, 1981.
5. Мирсоатов Т.З. Немис тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
6. Moskalskaja O. Grammatik der Deutschen Gegenwarts – Sprache. – M.: Высшая школа, 1976.
7. Mirsoatov T. Deutsche Grammatik. – Tashkent, 1987.
8. Saidov S., Zikrillayev F. Grammatik der deutschen Grammatik. – Tashkent, 1973.
9. Saidov S. Deutsche Grammatik in Übungen. – Tashkent, 2003.
10. Sattorov M., Mirsodiqova D., Safarov O. Otning grammatik xossalari va oldko'makchilarning qo'llanishi. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
Nemis tili alifbosi.....	4
Ba'zi talaffuz qoidalari.....	5
Ayrim harflar va harf birikmalarining o'qilishi	6
Artiki	8
Aniq va noaniq artikllarning turlanishi.....	9
Aniq artiklning qo'llanishi	9
Noaniq artiklning qo'llanishi.....	10
Artiklning qo'llanmaslik hollari.....	11
Otl	12
Otlarning grammatik rodini ularning ma'nosiga qarab aniqlash	12
Otlarning grammatik rodini ularning so'z yasovchi suffikslariga qarab aniqlash.....	13
Qo'shma otlar	15
Otlarda ko'plik shaklining yasalishi.....	16
Faqat ko'plikda qo'llanadigan otlar	17
Otlarning turlanishi.....	18
Otlarning kuchli turlanishi	19
Otlarning kuchsiz turlanishi.....	19
Jenskiy roddagi otlarning turlanishi	20
Otlarning aralash turlanishi.....	20
Otlarning ko'plikda turlanishi.....	20
Davlat, qit'a, ma'lum hudud va ularda yashovchilar ro'yxati.....	21
Sifat	24
Sifatlarning kuchli turlanishi	24
Sifatlarning kuchsiz turlanishi	25
Sifatlarning aralash turlanishi	25
Sifatlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	26
Turlanmaydigan sifatlar	27
Otlashgan sifatlar.....	27
Sifat darajalari.....	27
Darajalarning o'ziga xos shakli	28

Qiyoslash	29
Olmosh	29
Kishilik olmoshlari	30
Egalik olmoshlari	31
Ko'rsatish olmoshlari	32
So'roq olmoshlari.....	34
Nisbiy olmoshlar	35
<u>Sich</u> o'zlik olmoshi	36
<u>Es</u> shaxssiz olmoshi	37
Noaniq (gumon) olmoshlar	38
Birgalik olmoshlari	39
Inkor (bo'lishsizlik) olmoshlari.....	39
Son	41
Sanoq sonlarning yasalishi.....	41
Sanoq sonlarning qo'llanilishi	43
Tartib sonlar	44
Tartib sonlarning yasalishi	45
Kasr sonlar	46
Ravish	47
Ma'nosiga ko'ra ravish guruhlari.....	47
Ravishlarning qiyosiy darajalari	49
Predlog (old ko'makchi)lar	50
Akkusativ kelishigi predloglari	51
Dativ kelishigini boshqaradigan predloglar	54
Dativ va akkusativ kelishigi predloglari	60
Genitiv kelishigini boshqaradigan predloglar	66
Vaqt predloglari.....	67
Predloglarning artikllar bilan birikishi	68
Fe'l	69
Fe'llarning tasniflanishi	69
Fe'llarning asosiy shakllari.....	70
Fe'l zamonlari	72
Das Präsens	72
Das Präteritum (Das Imperfekt)	74
Das Perfekt	80

Perfektda va Plusquamperfektda ko'makchi fe'lni tanlash	81
Sifatdosh.....	82
Das Plusquamperfekt	83
Modal fe'llar	86
Modal fe'llarning ma'nosi	86
Modal fe'llarning tuslanishi	88
Infinitiv	89
Infinitivning <u>zu</u> yuklamasisiz qo'llanishi.....	90
Infinitivning <u>zu</u> yuklamasi bilan qo'llanishi	91
O'zlik fe'llari	92
Kuchli va noto'g'ri tuslanishli fe'llar jadvali.....	94
Ko'proq ko'makchili boshqaruv bilan qo'llanadigan fe'llar ro'yxati.....	97
Mayl	98
Buyruq mayli.....	98
Istak mayli	100
Konjunktivda fe'lning shaxs qo'shimchalari	100
Präsens Konjunktiv.....	101
Ko'makchi fe'llarning Präsens Konjunktivi.....	101
Präteritum Konjunktiv	101
Ko'makchi fe'llarning Präteritum Konjunktivi.....	102
Perfekt Konjunktiv.....	102
Plusquamperfekt Konjunktiv	102
Futur I Konjunktiv.....	102
Futur II Konjunktiv.....	103
Konjunktivda modal fe'llar.....	103
Präsens Konjunktiv.....	103
Präteritum Konjunktiv	104
Konjunktiv I ning qo'llanishi	104
Konjunktiv II ning qo'llanishi	105
Majhul nisbat	106
Passivning yasalishi	107
Shaxssiz Passiv	109
Hotat Passiv	109
Passiv modal fe'llar bilan	110
Turli zamon shakllarida <u>loben</u> fe'li (kuchsiz fe'l)	110

Turli zamon shakllarida <u>erwachen</u> fe'li (sein).....	112
Turli zamon shakllarida <u>rufen</u> fe'li (kuchli fe'l).....	114
Gap tuzilishi.....	117
Sodda gaplar.....	117
Inkor.....	119
Inkorning ifodalanishi.....	120
Qo'shma gap.....	121
Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap.....	121
Bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.....	122
Bog'lovchilar.....	122
Ergashgan qo'shma gap.....	125
1. Ega ergash gap.....	125
2. Kesim ergash gap.....	125
3. To'ldiruvchi ergash gap.....	126
4. Payt ergash gap.....	128
5. Sabab ergash gap.....	130
6. Shart ergash gap.....	131
7. Natija ergash gap.....	132
8. To'siqsiz ergash gap.....	132
9. Qiyosiy ergash gap.....	133
10. Nisbiy ergash gap.....	133
11. Maqsad ergash gap.....	134
So'roq so'zlar.....	136
Ranglar.....	137
Dunyo tomonlari.....	137
Yil fasllari va oylar.....	137
Hafta kunlari.....	138
Kecha-kunduz qismlari.....	138
O'zbekcha – nemischa grammatik terminlar lug'ati.....	139
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</i>	170

Ilmiy-ommabop nashr

Sardor NAZAROV

**NEMIS TILI GRAMMATIKASI
JADVALLARDA**

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV

Texnik muharrir: Xurshid IBROHIMOV

Sahifalovchi: Alimardon AQILOV

Musahhih: Otabek BOQIYEV

9400

UZRABAD
NEMIS TIL GRAMMATIKASI
JADVALI

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 06.01.2014-y.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2016-y.

Gazeta qog'ozlari. Qog'oz bichimi 84x108 ¹/₃₂.

Arial garniturasini. Ofset usulida bosildi.

Hisob-nashriyot t: 5.5. Shartli b.t.: 9,24.

Adadi: 1500 nusxa.

Buyurtma № 067.

«AKADEMNASHR» nashriyatida tayyorlandi.
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.
100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.

9 56 9米分



Nazarov Sardor Hasanovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Chet tillar fakulteti «Nemis tili va o'qitish metodikasi» kafedrasida o'qituvchisi, «Y.V.Gyote «Faust» asarining turkiy tillardagi tarjimalarida tasviriy vositalarning ifodalanishi» mavzuyida doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

«Faust» fojiasnomasi tarjimalarida uslubiy vositalarning qayta yaratilishiga doir (epitet misolida)» (2011), «Bevosita va bilvosita tarjimada obrazli vositalarning qayta yaratilish masalasi (Y.V.Gyotening «Faust» fojiasnomasi o'zbekcha tarjimalari misolida)» (2012), «Трудности перевода: метафора и метонимия в переводе (на материале английского, русского, узбекского и немецкого языков)» (2013), «Teaching language using communicative and cognitive methods» (2013), «Образ Фауста в немецкой литературе и его интерпретация у Гёте» (2013) kabi o'ttizdan ortiq maqolalari yurtimiz va chet el ilmiy jurnallarida e'lon qilingan.



ISBN 978-9943-995-43-7



9 789943 995437